

БИТИРУВЧИ: ТОПИЛОВ ЗАЙНИДДИН

Mundarija

Kirish.....

I bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni nazariy asoslari.....

I.1. Mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati,mazmuni va funksiyalari.....

I.2. Mahalliy byudjet mablag'lari tarkibi va ulardan unumli foydalanish yo'llari.....

I.3. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni huquqiy asoslari.....

II bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish masalalari.....

II.1. Mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ularni bajarilishi tahlili.....

II.2. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi va uning tahlili.....

II.3. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanish tahlili.....

III bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni yechimlari.....

III.1. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishda xorij tajribasi.....

III.2. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....

Xulosa va takliflar.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....

Ilovalar.....

Kirish

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «beshinchi ustuvor yo'nalish - markaziy va yuqori davlat boshqaruv organi idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash»¹ zarurdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetlarni hududlarni taraqqiyotidagi rolini saqlab qoladi. Buning uchun mahalliy budjet ijrosini samarali amalga oshirish zaruriyati tug'iladi. Mahalliy budjetlar ijrosini samarali amalga oshirish, eng avvalo daromadlarni shakllantirishni oqilona tashkil qilish hamda xarajatlarni moliyalashtirish bo'yicha yuqori samara olish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bunday muammoni xalq etishda avvalo mahalliy budjetlarni dotatsiyadan chiqarish, birinchi navbatda birlashtirilgan daromadlarni mahalliy budjet daromadidagi salmog'ini oshirish lozim. Xukumatimizning keyingi yillardagi mahalliy budjetlarni "tenglashtirish" siyosati orqali ularni daromadlarini oshirish, dotatsiyani qisqartirish, xarajatlarni qat'iy belgilangan yo'nalish bo'yicha samarali sarflash maqsadga muvofiq. Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, iqtisodiyotning hozirgi sharoitida mahalliy budjetlarni ijrosini samarali tashkil etishda, daromadlarni shakllantirishni eng maqbul yo'llarini izlab topish, xarajatlarni esa belgilangan yo'nalishlar bo'yicha samaradorligini oshirish mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mahalliy budjetlar mamlakat byudjet tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib uning ma'lum qismini o'zida ifoda etadi. Shu ma'noda byudjet tizimi byudjetning o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatda mahalliy budjetlar jamiyatning siyosiy tuzilishiga davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy hududiy bo'linishiga bog'liq. Ushbu mavzu mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning asarlarida,

¹ Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust.

shunigdek iqtisodchi olimlardan M.Sharifxo'jaev , Yo. Abdullaev , A.Vaxobov ,T.Malikov, X.Jamolov , G.Qosimova , Z.Sirojiddinovalarning ilmiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Mavzuga taalluqli ko'plab ilmiy maqolalar oynoma va ro'znomalarda chop etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsad va vazifalari. Mahalliy budjetlar samarali ijrosini ta'minlash yo'nalishlarini tatbiq etish asosida budjet ijrosi mexanizmini takomillashtirish va mahalliy budjetlar daromad bazasini mustaxkamlash , mahalliy budjetlardan xarajatlarni samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tatqiqot ishiga quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni nazariy asoslarini ko'rsatib berish;
- mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish masalalarini ishlab chiqish;
- mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni yechimlariga tavsiyalar berish;
- mahalliy budjetlar ijrosini samaradorligini oshirishda daromad turlarini ko'paytirish yo'llarini aniqlash;
- mahalliy budjetlar xarajatlarini samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.Ishning ob'ektini mahalliy byudjet mablag'laridan, davlat byudjeti va uning bo'g'inlari jumladan Namangan viloyati maxalliy byudjeti tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Uning predmetini esa mahalliy byudjet mablag'laridan ta'minlashdagi moliyaviy munosabatlari tashkil etadi.

Ishning nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Byudjet tizimi to'g'risidagi qonuni, Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risidagi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari,o'zbek va xorijiy iqtisodchi olimlarning mavzuga doir ilmiy asarlari va ilmiy maqolalari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Ushbu ishning amaliy ahamiyati sifatida mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanish masalalari yuzasidan berilgan takliflar ko'riladi. Shuningdek ushbu bitiruv malakaviy ishidan "Davlat byujeti", "Maxalliy byudjetni shakllantirish va boshqarish" fanlarida mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishga bag'ishlangan mavzularni o'tishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob ,xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi uning o'rganilganlik darajasi nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan.

Birinchi bobda mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni nazariy asoslari yoritilgan. Ushbu bobda mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati,mazmuni va funksiyalari mahalliy byudjet mablag'lari tarkibi va ulardan unumli foydalanish yo'llari mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni huquqiy asoslari keltirilgan.

Ikkinchi bobda mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish masalalari yoritilgan. Ushbu bobda mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ularni bajarilishi, mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi va uning tahlili va mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanish yo'llari tahlil qilingan.

Uchinchi bobda mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni echimlari yo'llari ko'rib chiqilgan.Ushbu bobda mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishda xorij tajribasi va mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Ishning **xulosa** qismida fikrlar umumlashtirilib asosiy tavsiya va takliflar keltirilgan.

I bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni nazariy asoslari.


I.1. Mahalliy byudjetning iqtisodiy mohiyati, mazmuni va funktsiyalari.

Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati, uni taqsimlash (qayta taqsimlash) va nazorat funktsiyalari orqali amalga oshiradi. Birinchi vazifasi orqali hududiy bo'linmalar ehtiyojlarini qondirish maqsadida pul mablag'larini davlat qo'lida to'plash va ishlatishni amalga oshirsa, ikkinchi vazifasi moliyaviy resurslar qay darajada to'la va o'z vaqtida davlat ihtiyoriga kelib tushayotganligi, byudjet mablag'larini taqsimlashdagi munosiblik haqiqatda qanday, ulardan foydalanish samarasi qay darajada ekanligini bilish imkonini beradi. Mahalliy byudjetning vazifalari iqtisodiy kategoriya sifatida haqqoniydir. Ammo byudjetga tegishli hususiyatlar, uni taqsimot va nazorat quroli sifatida ishlatish faqat jamiyat taraqqiyoti jarayonida, ya'ni davlat tomonidan vujudga keltirilgan byudjet mexanizmida o'z aksini topgandagina yuzaga kelishi mumkin.

Iqtisodiy mohiyatga ko'ra mahalliy byudjetlar - bu hududlarda halq xo'jaligini, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni, davlat boshqaruvini moliyalashtirishga qaratilgan byudjet jamg'armasini tashkil etish va ishlatish munosabati bilan milliy daromadni qayta taqsimlash bo'yicha davlatning huquqiy va jismoniy shaxslar bilan vujudga keladigan pul munosabatlaridir. Mahalliy byudjet sababli hududlarda moliyaviy resurslarni iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning hal qiluvchi jabhalariga jalb qilish imkoniga ega bo'linadi.

Mahalliy byudjetlar bevosita moliya tizimi bo'g'imlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar. Jumladan, hukumat tomonidan chiqariladigan qonunlar, qarorlar asosida mahalliy byudjetlarning daromadlar qismi korxona, tashkilotlar, muassasalar, jamoat tashkilotlari jismoniy shaxslar daromadidan soliq olish yo'li bilan to'ldirib boriladi. Bunda bevosita soliq hizmati organlari, bank muassasalari faol ishtirok etadilar. Bundan tashqari mahalliy byudjetlar byudjet muassasalari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga mablag' yuborish bilan ular faoliyatini tashkil etish va daromadini oshirishda bevosita ishtirok etadilar.

Ўзбекистон Республикаси давлат (консолидациялаштирилган) бюджет тизими



Mahalliy byudjetlar yordamida hududlardagi ijtimoiy daromadlar, YaIM korxona va tashkilotlar daromadiga soliq va tushumlar solish yo'li bilan taqsimlanadi va ularning ma'lum qismi mahalliy byudjetlar ihtiyorida jamlanadi. Jamlangan mablag'lar amaldagi hukumat o'z siyosatini amalga oshirish uchun mahalliy byudjetlar tomonidan hududlarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirishga sarflanadi, yoki YaIM shu yo'l bilan qayta taqsimlanadi

2-chizma



Davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarishdagi muvofiqlikni ta'minlash zarurligini o'rganishda mahalliy iqtisodiy siyosatni faol amalga oshirish uchun yetarli hajmda mablag'larni jamlash imkonini beruvchi mahalliy byudjet zvenolarini isloh qilishga kontseptual yondashuvlar muhim masaladir. Bu masalani hal qilish uchun quyidagilarni o'rganish va muhim hulosalarni chiqarish lozim:

1. Yangi byudjet qurilishi sharoitlarida mahalliy iqtisodiy siyosatning soliq-byudjet vositalarini shakllantirish asoslarini va mahalliy darajadagi byudjet tafovvtlarini tekislashning jahon amaliyoti tahlilini o'rganish.


2. Milliy va horijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan byudjet nazariyalarining uslubiy asoslarini o'rganish tadqiq qilinadigan uslublar sifatida quyidagilardan foydalanish mumkinligini ko'rsatdi:

A) Byudjet jarayonlarini tashkil etish muammolarini o'rganishga tizimli yondoshuv;

B) Byudjet-soliq siyosati orqali tartiblashni tashkil etish sohasidagi nazariy, uslubiy va amaliy ishlanmalarni ilmiy tahlil qilish hulosalar chiqarish.

3-чизма

Ўзбекистон Республикаси маҳаллий бюджетининг тузилиши



Bozor munosabatlarini o'rganish va byudjet tizimini isloh qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasi hududlarida mahalliy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish byudjetlararo munosabatlarni shakllantirish va soliq tizimi transformatsiyasiga printsipal yangi fundamental yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Har qanday jamiyat tizimida ham jamiyat rivojlanishini tartiblashning o'xshash masalalari, ammo turli usullari uchrab turadi. Mustaqillikka qadar iqtisodiyotda buning uchun to'g'ridan-to'g'ri direktiv boshqaruv usullaridan foydalanilgan. Hozirgi kunda mamlakatning mustaqil davlat qurish amaliyotiga o'tish orqali boshqaruvning ikki bosqichli markazlashmagan tizimi shakllantirilmoqda. Vakolatlarni «markaz» va mahalliy boshqaruv organlari orasida qayta taqsimlash yuz bermoqda, ya'ni bu bilan respublika va mahalliy hudud tashkilotlarining barcha darajalarida bu taqsimlashni amalga oshirishga mos vositalar shakllantirishga iqtisodiy siyosat bo'ysundirilgan.

Jahon tajribasida mahalliy iqtisodiy siyosatning uch turi ajratib ko'rsatiladi: birinchisi, hududlar rivojlanishini maqsad qilib olgan; ikkinchisi, mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishga yo'naltirilgan; uchinchisi, aholi bandligi va hududlar iqtisodiy rivojlanishining darajasi va maqsadlariga bog'liqdir. Asosiy o'rinda hududiy rivojlanishning quyidagi maqsadlari guruhini (bir qancha tashkil qiluvchilari bilan) keltirishimiz mumkin:

Strategik-amaliy hususiyat (depressiv holatdan chiqish, xo'jalik sohalari transformatsiyasi, tashqi iqtisodiy faoliyatga omilkor yondoshuv va boshqalar);
-strategik barqarorlashuv hususiyati (jarayonlar birligini saqlash, iqtisodiy hududlarda evolyutsion islohotlar o'tkazish va boshqalar);
-mahalliy boshqaruvda joylashgan alohida tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash ;
-joriy (alohida xizmat, hududiy xo'jalik tizimi, uning ob'ektlarini) rivojlantirish bo'yicha aniq masalalar.

I.2. Mahalliy byudjet mablag'lari tarkibi va ulardan unumli foydalanish yo'llari.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur taxdil qilishni taqozo qilmoqda. Respublika va mahalliy byudjetlarning bajarilishi ustidan moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish muammolari belgilangan parametrlar doirasida xarajatlarni amalga oshirish, byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, byudjet mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobini yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Davlat byudjeti xarajatlari, davlat xarajatlarini tashkil etishga oid tamoyillar, mablag'larni maqsadli taqsimlash, tejamkorlik rejimiga qat'iy amal qilish, davlat moliya-byudjet intizomiga amal qilinishiga erishish maqsadida samarali moliyaviy nazorat tizimiga ega bo'lish lozim. Jumladan, byudjet jarayonini mavjud qonunchilik asosida, byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet intizomini ta'minlash byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsad va vazifalarni amalga oshirish byudjet jarayonlarida mablag'larni maqsadli taqsimlash, mablag'lardan eng yuqori samaraga olinishiga erishiladigan holda foydalanish va tejamkorlik hamda moliya-byudjet intizomini ta'minlash va uni nazorati orqali erishish mumkin bo'ladi.

Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning byudjet siyosatiga xam chambarchas bog'liq sharoitda eng muhim vazifa kilib byudjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni, moliya qonunchiligiga rioya etilishi va byudjet intizomini ta'minlash, byudjet xarajatlarining samaradorligini oshirish, mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va egali bo'lishiga erishishdan iborat.

Shuningdek, markazlashgan byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanishini nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanish dastur asosida aniq ro'yxatli bo'lishini, byudjetdan mablag' oladigan byudjet muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish, bu bilan byudjet mablag'laridan foydalanish hisobini yuritish nazoratini ta'minlanishini taxdil qilishni taqozo etadi. Byudjet mablag'lari mamlakatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo'lida hukumat tomonidan yaqin va uzoq davrlarga mo'ljallangan davlat dasturlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va manzilli bo'lishiga erishishga zaruriyat tug'iladi. Bu esa Davlat byudjetining mavjud mablag'larini maqsadli to'g'ri taqsimlanishini doimiy nazoratini amalga oshirishni talab etadi. Bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlashdagi jarayonlar, jumladan, byudjet jarayoni, byudjet ijrosini qat'iy ta'minlashda byudjetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish va undan maqsadli, samarali foydalanishda byudjet intizomini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish byudjet siyosatini to'g'ri yuritish, byudjet mablag'laridan samarali, oqilona foydalanishni talab etadi. Byudjet dasturlarining aniq va o'z vaqtida bajarilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada ijobiy bajarilishini ta'minlaydi. Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Hozirgi iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning byudjet siyosatiga xam chambarchas bog'liq sharoitda eng muhim vazifa qilib byudjetlarning qat'iy bajarilishi ustidan doimiy nazoratni, moliya qonunchiligiga rioya etilishi va byudjet intizomini ta'minlash, byudjet

xarajatlarining samaradorligini oshirish, mavjud mablag'larni oqilona taqsimlash, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va manzilli bo'lishiga erishishdan iborat. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanishni nazoratini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida va bozor munosabatlari rivojlangan taqdirda ham moliyaviy nazoratning salohiyati pasaymasdan, balki oshib boradi.

Bu sharoitda moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning ham maqsad va vazifalari, shakllari tubdan o'zgaradi. Endi u faqatgina jazolovchi organ sifatida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larni to'liq to'planishi, byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilishni nazorat qilish, maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda.

Jahon tajribalari shuni ko'rsatadi, qonuniylik, ob'ektivlik, erkinlik va mustaqillik moliyaviy nazoratning tamoyillari hisoblanadi. Moliyaviy nazorat instituti davlatning nazorat organlarining umumiy tuzilishini o'zida mujassamlashtiradi va moliyaviy mexanizmning asosiy elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy nazoratning muhim shakllaridan biri-davlat byudjetining moliya nazorati hisoblanadi. Byudjet nazorati orqali davlat va mahalliy hokimiyat organlari muntazam ravishda tasdiqlangan byudjetning daromad va xarajatlar rejalarini to'liq va sifatli bajarilishini nazoratga olish, ularning bajarilishiga ta'sir qiluvchi turli salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zudlik bilan zarur chora-tadbirlar belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Byudjetni iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan ko'pqirrali aloqalarini byudjet ko'rsatkichlarining aniq adresli xarakteri ifodalaydi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida to'g'ri ishlatilishini nazorat qilishga asos yaratadi. Byudjetni daromadlari va xarajatlarining ko'rsatkichlari tizimi orqali nazorat qilinadi.

Moliya, byudjet, soliq intizomiga yetarli darajada rioya qilinmayotganligi va byudjet mablag'larini maqsadsiz ishlatilishida ko'psonli holatlarning mavjudligi barcha mamlakatlarda davlat nazoratini kuchaytirishni zarurligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan hech bir mamlakat yo'qki, moliya sohasida davlatning nazorat organlari mavjud bo'lmasin.

Markazlashgan byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanishini nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tadbirlarga ajratilgan byudjet mablag'laridan foydalanish dastur asosida aniq ro'yxatli bo'lishini, byudjetdan mablag' oladigan byudjet muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini soddalashtirish, bu bilan byudjet mablag'laridan foydalanish hisobini yuritish nazoratini ta'minlanishini taxdil qilishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashishi, islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Respublika va mahalliy byudjetlarning bajarilishi ustidan moliyaviy nazorat samaradorligini oshirish muammolari belgilangan parametrlar doirasida xarajatlarni amalga oshirish, byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, byudjet mablag'lari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarni hisobi yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri davlatning moliyaviy nazorati hisoblanadi. Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga olingan davlat mol-mulkini to'liq saqlanishini ta'minlashda ham nazorat muhim ahamiyat kasb etadi. Byudjet ijrosining nazorati asosan davlatning maxsus vakolatli idoralari tomonidan olib boriladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan barcha darajadagi byudjetlarni sifatli bajarilishini byudjet jarayonining barcha bosqichlarida nazorat qilish, byudjet oldidagi majburiyatlarni to'liq va o'z vaqtida bajarish, byudjet intizomiga rioya etish,

byudjet mablag'laridan samarali foydalanish yuzasidan nazorat-taftish ishlarini bajaradi.

Dastlabki nazorat-taxminlash, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, xo'jalik yoki moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan avval o'tkazilib, oqilona boshqaruv yechimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi. Uning maqsadi noqonuniy operatsiyalar, samarasiz xarajatlarning oldini olishdir. Navbatdagi nazorat-xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkazilib, tekshirilayotgan xujjatlarni va muassasaning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganishi bilan farq qiladi. Uning maqsadi tugallangan operatsiyalarni qonuniyligi, maqsadga muvofiqligini, to'liq va o'z vaqtida bajarilganligini aniqlashdir.

Prezidentimiz I. A. Karimov davlat byudjeti intizomiga rioya qilish iqtisodiyotni barqarorlashtirishning asosiy omillaridan biri ekanligini o'zining «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlab o'tdilar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ham shuni ko'rsatadiki, byudjetning asosiy vazifalari milliy daromadni taqsimlash, iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solish, ijtimoiy sohalarni moliyaviy ta'minlash va davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish va markazlashtirilgan pul jamg'armalarini shakllantirish hamda ulardan foydalanishning moliyaviy nazoratini amalga oshirishdan iborat. Chunki, byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlar va dasturlarni aniq va o'z vaqtida moliyalashtirilishi ayni paytda davlat dasturlarining ham pirovard natijada to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish va iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Byudjet to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini, Davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini, Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirish va uning xarajatlarini amalga oshirish printsiplarini, Davlat byudjeti tuzilmasiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, Davlat byudjeti mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy, byudjet va soliq huquqlari "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrdagi Qonuniga asosan mahalliy byudjetlarning loyihalarini tayyorlash, uning ijrosi hokimlar rahbarligida amalga oshiriladi. Byudjet loyihasi hokim tomonidan daromadlar manbai va harajatlar yo'nalishi ko'rsatilgan holda kengashga taqdim etiladi. Qonunda mahalliy byudjetlarning daromadlari va sarf harajatlari belgilab berilgan.

Mahalliy byudjetlarda byudjet mablag'larini samarali ishlatishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish mumkin:

- byudjet tashkilotlarida kommunal xizmatlar bo'yicha limitlar nazoratini ta'minlash;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalarda mehnatga haq to'lashni tahlil qilish;
- mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari va ulardagi xizmatchilarini sonini qisqartirish bo'yicha inventarizatsiya o'tqazish.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 14 mart 2002 yil 1111-son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 29 dekabr 2002 yil 130-sonli buyrug'i bilan «Davlat byudjetini tuzish va ijro etish Qoidalari» ham byudjet qonunchiligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 11 fevraldagi "Byudjet intizomiga rioya qilish ustidan nazoratni kuchaytirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 66-son qarorda Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, shahar va tumanlar xokimlari, moliya organlari va byudjet muassasalari rahbarlariga byudjet intizomiga qat'iy amal qilinishini ta'minlash vazifasini yuklab, byudjet mablag'laridan noqonuniy, boshqa maqsadlarga sarflanish holatlari yuz bersa, ular shaxsan javobgar ekanliklari haqida ogoxlantirilgan. Mazkur qarorga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 15 noyabrdagi 393-son qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalarining asosiy vazifasi etib moliya organlari, byudjet muassasalari va tijorat banklarini birinchi navbatdagi sarf-xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash hamda byudjet muassasalari xodimlariga ish haqi, ijtimoiy nafaqalar, stipendiyalarni to'lash muddatlariga va to'liqligiga rioya qilish, shuningdek, byudjet muassasalariga ko'rsatib o'tilgan maqsadlar uchun naqd pul berish bo'yicha faoliyati ustidan nazorat va monitoringni amalga oshirish belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414 sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o'zgartirishlar ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida yoki hududiy moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng amalga kiritiladi. Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan byudjet tashkilotlari birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi. Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag' o'tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi. Kapital qo'yilmalarga ajratmalar joriy byudjet yili uchun tasdiqlangan respublika investitsiya dasturiga muvofiq kurilishlarning aniq ro'yxatlariga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ajratiladi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy byudjetlardan mablag' bilan ta'minlash smetalarga va byudjet xarajatlari ro'yxatlariga, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek, oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarini:

- respublika byudjetidan mablag' bilan ta'minlash - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida belgilangan shakldagi, byudjet tasnifnomasi paragraflari va xarajatlar guruhlarini ko'rsatgan holda, xarajat jadvallari va xarajatlarning xar bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov qog'ozi bilan rasmiylashtiriladi;

- mahalliy byudjetlardan mablag' bilan ta'minlash - tegishli moliya tashkilotlarida belgilangan shakldagi farmoyish bilan va xarajatlarning har bir guruhi bo'yicha bir satrda mablag' o'tkazish uchun to'lov kogozi bilan rasmiylashtiriladi.

Byudjet tashkilotlarining xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashda yangi byudjet yilida mablag' ajratish rejasi debitorlik qarzlar kreditorlik qarzlardan ortiq summaga va byudjet tashkilotlarining hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi holatiga ko'ra tovar-moddiy boyliklarning normativdan ortiq qoldigi summasiga kamaytiriladi.

Byudjet mablag'lari byudjet tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda, byudjet ijrosi jarayonida belgilangan tartibda ularga kiritilgan, o'zgartirishlarni hisobga olgan holda tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida sarflanadi. Bunda xarajatlarning I va II guruhlarini birinchi navbatda mablag' bilan ta'minlanadi. Xarajatlarning III guruhi byudjet tashkilotlari tomonidan Respublika investitsiya dasturida joriy moliya yili uchun belgilangan limitlar doirasida mablag' bilan ta'minlanadi. "Boshqa xarajatlar" IV guruhi bo'yicha mablag'lar belgilangan limitlar doirasida quyidagi navbatga rioya qilgan holda sarflanadi:

- oziq-ovqat;
- dori-darmonlar;
- kommunal xizmatlar;
- boshqa xarajatlar.

Byudjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya organlari bilan kelishgan xolda mavsumiy yoki shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o'quvchilari uchun maktab anjomlari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyimlar xarid qilish, epidemiyaga qarshi, yuqumli kasalliklarga qarshi tadbirlar va boshqa tadbirlar)ni mablag' bilan ta'minlash uchun mablag'larni IV guruh mablag'lari hisobiga tezkorlik bilan xarajat qilishlari mumkin.

Byudjet mablag'laridan foydalanilishini nazorat qilish byudjetdan mablag' bilan ta'minlashning belgilangan normativlari va limitlari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining amaldagi tasnifnomasi, tegishli byudjetlarning tasdiqlangan parametrlari, tasdiqlangan shtat jadvallari va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan byudjet tashkilotlari xarajatlari smetasi, mazkur Tartibning qoidalari va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Byudjet tashkilotlari tomonidan mablag'larning sarflanishini, shu jumladan, byudjet tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi, uning hududiy organlari va joylardagi moliya organlari tomonidan qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarining smetalari va shtat jadvallarini tuzish hamda tasdiqlangan smetalar va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya etilishi, ularning tasdiqlangan tasnifnomaga, xarajatlar normativlari va limitlariga muvofiqligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq:

byudjet tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgalterlari - byudjet tashkilotlarining ishlab chiqilgan va ro'yxatdan o'tkazish uchun kiritiladigan tasdiqlangan smetalari va shtat jadvallari to'g'riligi va asoslanganligi uchun;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tizimining vakolatli xodimlari, shu jumladan Moliya vazirligi rahbarlari va markaziy apparati xodimlari - byudjet tashkilotlarining ro'yxatdan o'tkazilgan shtat jadvallari va yig'ma smetalari to'g'riligi va asoslanganligi uchun shaxsan javob beradilar.

Byudjet mablag'lari hisobiga, xam mazkur Tartibda nazarda tutilgan boshqa manbalar hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning rahbarlari amaldagi mehnat, ma'muriy, jinoyat qonunchiligiga muvofiq byudjet intizomi buzilishi uchun, shu jumladan:

- byudjet mablag'laridan va boshqa pul mablag'laridan noo'rin foydalanilishi;
- muddati o'tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlari paydo bo'lishi;
- xarajatlar guruhlariga bo'yicha tasdiqlangan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar limitlari oshirib yuborilishi;
- shtat-smeta intizomi buzilishi;
- xarajatlar smetasi ijrosi to'g'risidagi hisobot o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun shaxsan javob beradi.

Respublika va mahalliy byudjet ijrosining nazorati jarayonida hozirgi kunda quyidagi muammolar ko'zga tashlanmoqda:

- byudjet ijrosi jarayonida mahalliy hokimiyat vakillarining asossiz aralashuvi;
- byudjet ijrosi ustidan nazorat qiluvchi vakolatli organlarning birlari bilan axborot almashmasligi va o'tkazilayotgan tekshirishlar ketma-ket bo'lib bir-birini takrorlayotganligi;
- respublika va mahalliy byudjetlar ijrosida byudjet «tiniqlik»ning yetarli emasligi;

- byudjet muassasalari tomonidan xarid qilinayotgan tovar moddiy boyliklar va oziq-ovqat mahsulotlarining joriy vaqtdagi bozor narxlaridan bir necha baravar qimmat narxlarda xarid qilinayotganligidir.

Bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlashdagi jarayonlar, jumladan, byudjet ijrosini qat'iy ta'minlashda byudjetdan birinchi darajali ustivor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish va ulardan maqsadli, samarali foydalanishda byudjet intizomini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mukinki, Davlat byudjetini belgilangan parametrlar doirasida muvaffaqiyatli ijro etilishi hamda byudjet intizomiga qat'iy amal qilishni ta'minlashda moliyaviy nazorat ishlarini yanada takomillashtirish lozim.

I.3. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanishni huquqiy asoslari.

Mahalliy byudjetlar huquqi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar, Toshkent shahri byudjet tuzilishini, byudjet tizimi daromadlari va harajatlarini taqsimlashni, tarkibi va tartibini, hududiy-ma'muriy bo'linmalar huquq darajasini va byudjet harajatini tartibga soluvchi moliyaviy-huquqiy normativ hujjatlar yig'indisidir.

Hozirgi kunda mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarini aniq ifodalab beruvchi asosiy hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

1. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori;
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjetlarida ko'zda tutilgan yillik daromadlar va harajatlar hajmlarini choraklar bo'yicha taqsimlash, tadbirlarni va tashkilotlarni moliyalashtirish bo'yicha byudjet ijrosi

jarayonida kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olish tartibi to'g'risidagi 1025-sonli yo'riqnomasi;

4. Soliq kodeksi va boshqa normativ huquqiy hujjatlar.

Byudjet tizimi to'g'risidagi qonun 43 ta moddadan iborat bo'lib, mahalliy byudjetlar tizimi tuzilishi va uni boshqarish asoslarini byudjetni tuzish printsiplarini, byudjet tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish tartibini, byudjetning daromadlarini shakllantirish va harajatlarni amalga oshirish tamoyillarini, davlat byudjeti tizimiga kiruvchi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, byudjet mablag'lari bilan operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida hisobga olish, hisobot va nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli qarorida mahalliy byudjetlardan mablag' oluvchi tashkilotlar mustaqilligini kengaytirish, mas'uliyatini oshirish maqsadida ularga:

- huquqiy shaxs maqomini berish;
- byudjet mablag'laridan tashqari qo'shimcha daromad topish;
- byudjet tashkilotlarini rivojlantirish maqsadida mahsus jamg'arma tashkil qilish huquqi berildi.

Shu bilan birga byudjet mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida:

- ijtimoiy jamg'arma hisobidan foydalanish tartibi;
- harajatlarni guruhlariga ajratish;
- qat'iy guruhlar tartibiga rioya qilgan holda moliyalashtirish vazifasi yuklatildi.

1025-yo'riqnomada byudjet jarayoni davomida mahalliy byudjetlar daromad va harajatlari hajmini choraklar bo'yicha taqsimoti tartibi, kapital qo'yilmalarni byudjetdan mablag' bilan ta'minlash tartibini, yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga byudjet dotatsilari, subvenitsiyalari, qisqa muddatli byudjet ssudalari berish tartibi, byudjet jarayonida qo'shimcha olingan va aniqlangan daromadlarni qo'shimcha harajatlarga yo'naltirish tartiblari ko'rsatilgan.

Amaldagi qonunchilikda mahalliy byudjetlar shakllanishi va ijrosini tashkil etishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga katta imkoniyatlar berilgan.

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mahsus qarorlari bilan tasdiqlangan «Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'rsida»gi hamda «Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilinganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'rsida»gi Nizomlar asosida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shuningdek, respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan va nomarkazlashgan moliyaviy munosabatlarga bosqichma-bosqich o'tilayotgan bir paytda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etishi shubxasizdir.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini talab darajasida bo'lishini ta'minlash respublikamiz har bir fuqarosining vazifasidir.

Moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida bilimi, iqtidorli kadrlarning bo'lishi, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish hamda malakani doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi. Bu borada respublika «Mahalla» jamg'armasi tomonidan ham tegishli tadbirlar amalga oshirilib borilmoqda.

Umuman olganda, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakolatiga qo'shimcha moliyaviy munosabatlarni belgilash, avvalambor, mahalliy byudjet daromadlari imkoniyatini kengaytirishga, soliq va yig'implarning o'z vaqtida undirilishini ta'minlashga xizmat qiladi hamda nomarkazlashgan moliyaviy munosabatlar bosqichi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada quyidagi takliflar mavjud:

- mahalliy byudjetlarni mustahkamlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakolatlariga ayrim soliq yig'implarini undirish vazifasini kiritish;

-fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahallalar hududida joylashgan, lekin qarovsiz, bo'sh yotgan binolar, bo'sh yerlar hamda qurilishi bitmasdan o'z holiga tashlab qo'yilgan turli ob'ektlardan foydalanishni yo'lga qo'yish;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bugungi kunda berilgan vakolatlarini kengaytirish, ya'ni ularning mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi rolini kuchaytirish. Jumladan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari joylashgan hududni uning davlat tomonidan ijaraga berilgan mulki sifatida belgilash. Uning hududida joylashgan bozorlar, aktsiyadorlik jamiyatlari, jamoa xo'jaliklari, korxona va tashkilotlar hamda savdo shaxobchalarining ta'sischi sifatida e'tirof etish, ya'ni mazkur fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari joylashgan hududdagi mulk shaklidan qat'iy nazar, mehnat faoliyati ko'rsatayotgan yuridik shaxsning ta'sischi hisoblanishi va uning faoliyatida olingan foydada ulushi bo'lishini belgilash.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatida bunday ishlarni amalga oshirish unga qanday majburiyatlarni yuklaydi va bu mahalliy byudjetlarni mustahkamlashda qanday ahamiyat kasb etadi?

Birinchidan, mahalla mulkiga ega bo'ladi va u o'z mulkining haqiqiy qo'riqchisiga aylanadi.

Ikkinchidan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududida istiqomat qiluvchi yuridik shaxs faoliyati mahalla nazoratida bo'lishni ta'minlaydi. Mahalla hududida faoliyat ko'rsatayotgan har bir yuridik shaxs moliyaviy va boshqa ishlarda muntazam kuzatuvchi bo'ladi. Ishni tashkil etishdan tortib, mahsulotni sotishdan ko'riladigan foydagacha bo'lgan jarayonni nazorat qiladi. Korxonada kimlar ishlaydi, qanday mahsulot ishlab chiqaradi, qaerda sotadi va boshqa barcha jarayon kuzatuvda bo'ladi. Ta'sis yig'ilishlarida ishtirok etadi.

Uchinchidan, mahalla harajatlari uchun daromad manbalar paydo bo'ladi. Mahalla o'z hududida joylashgan yuridik shaxs faoliyatidan olinadigan foydadan

manfaatdor bo'ladi. Foydadan olinadigan ulush differentsiallashgan bo'lishi mumkin. Bu bugungi kunda bir tomondan, mahalla oqsoqollari o'z lavozimlarini suiste'mol qilishining oldini olsa, boshqa tomondan, korxona va tashkilotning homiyligini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, mahalla hududida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxs uchun korxona va tashkilot faoliyatiga turli idoralarning aralashuvlari bo'lmaydi. Ya'ni, mahalla o'z hududida faoliyat yuritayotgan har qanday yuridik shaxsni o'z himoyasiga oladi. Yuridik shaxsning moliyaviy yoki iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish, tekshirish va taftish etish qat'iy ravishda, mahalla bilan kelishilgan jadval asosida amalga oshiriladi. Korxona faoliyatiga halal beruvchi turli hil o'zboshimcha tekshiruvchilar yo'li qirqiladi.

Beshinchidan, mahalla o'zining ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'zi yechadigan bo'ladi. Mahallaning o'z hisob raqamidagi daromadi manbasiga, mulkiga hamda hududiga ega bo'lishi, muammolarini o'z vaqtida o'zi hal etish imkoniyati kengaytiriladi. Aholi takliflarini inobatga olgan holda, tayyorlagan jarayonlar turlariga olingan daromadlar taqsimlanadi va barcha qilingan ishlar aholi o'rtasidagi muhokama qilinadi.

Oltinchidan, mahalla aholisi o'z hududida joylashgan har bir ob'ektni o'z himoyasiga olgan holda, doimiy ravishda ozodlik, obodonlashtirish hamda xasharlarni holisona tashkil etib, jamoatchilik birdamligini mustahkamlaydi. Mahalla hududida joylashgan hamda ta'sischi hisoblangan mahalla, ushbu korxona uchun bepul ish kuchi xizmatini tashkil etadi. Korxonaning talabiga ko'ra, mahalla aholisi obodonlashtirish, korxonani ta'mirlash ishlarida beminnat, faol yordam beradi.

Ettinchidan, korxona egasi bo'lgan mazkur yuridik shaxs mahalla hududida joylashgan kam ta'minlangan oilalar, yetim bolalari bor oilalar, boquvchisi yo'q bo'lgan oilalar, qariyalar, ishsizlar, vaqtincha bekorchi yoshlar, maktablar va bog'cha faoliyati, o'smirlar, maktab yoshidagi bolalar hamda bog'cha bolalariga yaqindan yordam berib, ularga mehr-muruvvat va sahovat ko'rsatadi.

Ijtimoiy masalalar bo'yicha tegishli tadbirlarni amalga oshiradi. Bu ishlari bilan mahallaning aholi o'rtasidagi ishonchi yana oshadi. Mahalla o'z aholisini jipslashtiradi. Bu esa mahallada nosog'lom kishilar bo'lmasligiga, qolaversa jamiyatimiz uchun havfli bo'lgan kimsalar himoyalaniadi. Yuqorida ta'kidlagan takliflar mahalliy byudjet shakllanishida va mustahkamlanishida hamda moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishda respublikamizda olib borilayotgan ishlarni yangi bir bosqichga ko'taradi, deb umid qilamiz.

Iqtisodiyot erkinlashuvi jarayonida mahalliy byudjetlar rolini oshirishga davlat tomonidan alohida ahamiyat ajratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yildagi 434-sonli hamda 437-sonli qarorlari shular jumlasidandir. Ushbu qarorlarga asosan Respublika aholisining ijtimoiy yordamga muhtoj, kam ta'minlangan, ko'p farzandli qismiga moddiy yordam va nafaqalar tayinlash va to'lash huquqi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari ihtiyoriga berilib, mahalliy byudjetlar tomonidan mablag' ajratiladi hamda nazorat qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari:

- tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetini va mahalliy byudjetlarni qabul qiladi, shuningdek ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdorlarini hamda ular bo'yicha imtiyozlarni belgilaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar loyihalarini tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'g'org'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etadi hamda ularning ijrosi to'g'risida hisobotlar tuzadi;
- byudjetga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanishi ustidan nazoratni tashkil etadi;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlar daromadi rejasidan ortiq bajarilgan qismi, aylanma kassa mablag'lari me'yordan ortiq saqlangan qismi, tovar moddiy boyliklarning normadan ortiq zahirasi qiymati, byudjet yili yakuniga daromadlarning harajatlardan ortiq qismi mahalliy hokimiyatlar organlari qaroriga asosan mahalliy byudjetlarga o'zgartirishlar kiritilib, qo'shimcha harajatlar uchun moliyalashtirish huquqi berildi.

II bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanish masalalari.

II.1. Mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va ularni bajarilishi tahlili.

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjeti siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi. Olib borilgan o'rganish natijalariga ko'ra, mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i pasayib borgan.

II.1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti 2008-2010 yillardagi holati.

T.r	Ko'rsatkichlar	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2010-yilda (Q;-)	
					2008-y	2009-y
1	YaIM (foiz)	9 %	8.1 %	8.5 %	-0.5 %	0.4 %
2	Daromadlar (mln so`m)	7108257,4	10421382,5	13116396,9	600813 9,5	120742 58,4
3	Xarajatlar (mln so`m)	7453076,. 9	10913026,4	13732502,5	627942 5,6	281947 6,1
4	Byudjet profitsiti	1,5 %	0,5 %	0,3 %	-1,2 %	-0,2 %

Manba O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasi byudjet holatini 2008-2009-2010 yillardagi holatini ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi YaIM 2008 yilda 9 foizni, 2009 yilda 8,1 foizni, 2010 yilda 8,5 foizni tashkil etdi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari holatini asta sekinlik bilan o'sib bordi.

**Namangan viloyati maxalliy byudjeti daromadining bajarilishining 2010 yil, 12 oylik
ma'lumotlari..(mln so'm)G'**

II.1.2-

jadval

Daromadlar	Aniqlangan reja	Bajarilgani	Foizda bajarilish i	Farqi (Q;-)
1. Jismoniy shaxslar mol- mulkiga soliq.	6150530	6216156	101	65626
2.Davlat boji	5228624	5755810	110	527186
3.Yig'imlar va xar xil soliqsiz daromadlar.	4519756	3147215	70	-1372541
4.Suv resurslaridan foydalanganlik solig'i	451137	476977	106	25840
5.Atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun to'lov				
6.Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i.	2420152	2520012	104	99860
7.Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	20571304	20690679	101	119375
8. Subventsia	193494767	193494767	100	0
9 O'zaro xisob- kitoblardan olingan mablag'lar	18895472	18895471	100	0
10. Byudjetdan qarzi	-	-	-	-
Xamma daromadlar.	625682158	633184022	101	7501

**Manba: ma'lumotlar Namangan viloyati Moliya boshqarmasi ma'lumotlari
asosida muallif tomonidan tayyorlandi.**


Jadval ma'lumotlardan kurinib turibdiki, Namangan viloyati maxalliy byudjeti daromadining bajarilishii buyicha daromadlar tushumi rejadan ko'ra ko'proq bajarilgan. Bular asosan, ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish uchun soliqlarning, davlat boji, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarning, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan soliqlarning rejaga nisbatan ko'roq bajarilganligi evaziga bo'lgan. Lekin shunday bulsa xam, ushbu tumanda bu

rejalarning bajarilishida yuqori byudjetdanqarz olingan xamda defitsitni qoplash mablag'laridan va byudjetlarning yil boshiga kolgan mablag'lari evaziga xisoblanib balans chiqarilgan.

Mahalliy byudjetlarga ayrim daromadlarning birkirtilganligi, mahalliy hokimiyatlarning byudjet mablag'larini o'z vaqtida va to'liq yig'ib olinishini ta'minlashga, mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini mustahkamlashga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, O'zbekistonda mahalliy byudjetlarga birkirtilgan soliqlar har yili byudjet yili uchun alohida tasdiqlanadi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 2005 yil 2 dekabrda gi «O'zbekiston Respublikasining 2006 yil davlat byudjeti to'g'risida»gi 99-1-sonli qaroriga asosan 2006 yilda mahalliy byudjetlarga birkirtilgan daromadlar sifatida yer solig'i, mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, boj to'lovlari va boshqa daromadlar (QQS, Aktsiz, korxona va tashkilotlar daromadlaridan (foydasidan) olinadigan soliq, aholi daromadlaridan olinadigan soliqlardan tashqari) belgilangan.

4-чизма

Маҳаллий бюджетнинг тартибга солинадиган даромадлари



Mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari qatoriga yuqoridagi qarorga asosan, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz, korxona va tashkilotlar foydasidan olinadigan soliq, aholi darodlaridan olinadigan soliq kiritilgan.

Mahalliy byudjet daromadlari tarkibidagi ushbu soliqlarning soliq undirilayotgan hududda qolayotgan ulushi belgilanadi. Natijada, ushbu soliqlarning ma'lum qismi soliq undirilayotgan hudud tarkibida qoldirilib, qolgan qismi viloyat, respublika byudjetlari ihtiyoriga o'tkaziladi. Bundan maqsad, o'z harajatlarini qoplay olmaydigan ayrim hududlar mahalliy byudjetlariga qaytarib bermaslik sharti bilan dotatsiya, subventsia tariqasida yuboriladi.

Yuqoridagi qarorga asosan, korxona va tashkilotlar daromadidan olinadigan soliq stavkasi 2005 yildagi 15% o'rniga 12% miqdorida belgilangan. Shundan, auktsion o'tkazishdan, gastrol kontsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bor bo'lgan huquqiy va jismoniy shaxslar daromadidan 35%, bolalar tovarlari, ayollar gigiena buyumlari hamda badiiy hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan huquqiy shaxslar foydasidan 10% miqdorida soliq stavkasi belgilandi. Savdo va umumovqatlanish korxonalari yalpi daromadidan olinadigan soliq stavkalari shahar joylari uchun 20%, qishloq joylari uchun 18% belgilandi. Eksport tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun daromad (foyda) solig'i stavkasi eksport ulushi:

- realizatsiya umumiy xajmida 15% dan 30% ga qadar bo'lganda 30% ga;
- realizatsiyaning umumiy hajmida 30% va undan ko'p bo'lganda belgilangan stavka 50% ga kamayadi;
- dividendlar va foizlar ko'rinishida daromad oladigan jismoniy va yuridik shaxslar uchun to'lov manbaalrining 2005 yildagi 15% o'rniga 12% miqdorida belgilandi

II.1.3-jadval.

Aholi daromadidan olinadigan soliq stavkasi quyidagicha belgilanadi.

Daromadlar amaldagi minimal oylik ish haqi hisobida	Soliq stavkasi foizi
Eng kam oylik ish haqi 5 barobari miqdorigacha	Daromad summasining 13%i
Eng kam oylik ish haqi 5 barobari miqdoridan (Q1 so'm) 10 barobari miqdorigacha	Eng kam oylik ish haqining 5 barobari miqdoridan olinadigan soliq Q5 barobaridan ortiq olingan daromadning

	20%i
Eng kam oylik ish haqi 10 barobari miqdoridan (Q1 so'm) va undan yuqori miqdorda	Eng kam oylik ish haqining 10 barobari miqdoridan olinadigan soliq Q10 barobaridan ortiq olingan daromadning 29%i

Manba O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Qo'shilgan qiymat solig'i realizatsiya qilingan mahsulot va ko'rsatilgan xizmat qiymati bo'yicha 20% stavka saqlanib qolindi. Aholiga suv ta'minoti, issqlik va gaz ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga respublika hududi orqali chet el yuklarini tashish bo'yicha xizmatlarga QQS 0% stavkasi bo'yicha hisoblash belgilandi.

Aktsiz solig'i stavkasi Respublikada ishlab chiqaridigan ushbu mahsulotlarga quyidagicha belgilandi :

1. O'simlik (paxta) yog'i:

- Oziq-ovqat yog'i 1 tonna uchun 495,0 ming so'm
- Texnik moy 1 tonna uchun 329,0 ming so'm

2. Tamaki mahsulotlari:

- Yumshoq o'ramdagi filtrli sigaretlar 1000 donasi uchun 4175 so'm;

- qattiq o'ramdagi fil trli sigaretlar 1000 donasi uchun 5206 so'm;
- fil trsiz sigaretlar, papiroslar 1000 donasi uchun 1476 so'm.

3. Spirtga soliq stavkasi 1 DAL spirt uchun 1410 so'm belgilandi.

Suv resurslaridan foydalanish solig'i jadvalga nisbatan 1,5 koeffitsient bilan belgilandi.

2.1.4-jadval

Soliq to'lovchilar turi	m ³ uchun stavka (tiyin)	
	Er usti suv resurslari	Er osti suv resurslari
Halq xo'jaligi barcha korxonalari	490,4	630,8
Elektrostantsiyalar	140,4	209,6
Kommunal xizmat tashkilotlari	270,0	350,0

Qishloq xo'jalik korxonalari, dehqon xo'jaliklari, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar	23,7	30,3
---	------	------

Manba O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mol-mulk solig'i stavkasi huquqiy shaxslar uchun mavjud mulklar qiymatinin 3,5 foizi miqdorida, jismoniy shaxslar uchun uy-joylar, kvartilar, chorbog' va bog' uylari, garajlar, boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar qiymatidan kelib chiqqan holda:

- 01.01.1998 yildan qayta baholangan bo'lsa, 0,5%;
- qayta baholanmagan bo'lsa, 7% miqdorida belgilandi.

Er solig'i stavkasi Namangan viloyati bo'yicha quyidagi jadvalga nisbatan 1,5 koeffitsient bilan belgilandi(so'm hisobida).

2.1.5-jadval

Soliq to'lovchilar	Sug'oriladigan maydon		Lalmi yerlar uchun	Bog'dorchilikka ajratilgan yerlar
	Aholi yashash joylari	Aholi yo'q hududlar		
Korxona, muassalar band qilgan yer uchun, zonalar bo'yicha 1 ga uchun	508814	486638	24640	-
Dehqon xo'jaligi uchun berilgan yerlardan 0,01 ga uchun	463,3	231,7	45,9	177,8

Manba: ma`lumotlar Namangan viloyati Moliya boshqarmasi ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi amaldagi 31 foizdan 25 foizga tushirildi. Bunda:

- byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga – 24,2 %;
- bandlikka ko'maklashuvchi davlat jamg'armasiga – 0,5 %;
- kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga – 0,3 %.

II.2. Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibi va uning tahlili.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar harajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag'lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

1.Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy harajatlari shaklida;

2.Joriy byudjet transfertlari shaklida;

3.Kapital harajatlar shaklida:

A)asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

B)davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

V)qonun hujjatlarida ta`qiqlanmagan boshqa harajatlar shaklida.

II.1.5-jadval

O'zbekiston respublikasi davlat byudjeti xarajatlarini bajarilishi to'g'risida ma`lumot (mlrd so'm)

Xarajatlar	2009 yil		2010 yil		Farq(Q;-)	
	Mln .so'm	% da	Mln so'm	% da	Mln. so' m	% da
1. Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlari nomi	617098 2,9	56,55	8113004	59,1	194 202 1,1	2,55
shundan:						
1.1. Maorif	356291 6,5	32,65	4635065	33,75	107 214	1,1

					8,5	
1.2. Sog'liqni saqlash	129004 8,5	11,82	1704132 ,2	12,41	414 083, 7	0,59
1.3. Madaniyat va sport	127336 ,1	1,17	159913, 3	1,16	325 77,2	-0,01
1.4. Fan	64317, 8	0,59	83570,8	0,61	192 53	0,02
1.5. Ijtimoiy ta'minot	47056, 8	0,43	59281,1	0,43	122 24,3	0
1.6. Oilalarga ijtimoiy nafaqalar (bolali oilalarni qo'shgan holda)	104370 3,9	9,56	1431895 ,2	10,4	388 191, 3	0,84
2. Fuqarolik jamiyati instituti, IChB va NNTlarning rivojlanishiga grantlar va mablag'lar	4000,0	0,04	4500	0,03	500	-0,01
3. Iqtisodiyot xarajatlari	130574 4,7	11,97	1573250 ,1	11,5	267 505, 4	-0,47
4. Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish harajatlari	820000 ,0	7,51	825000	6,47	500 0	-1,04
5. Davlat hokimiyat organlari, boshqaruv va sud organlarini saqlash	271905 ,8	2,49	351999, 7	2,56	800 93,9	0,07
6. Fuqarolarning o'zini- o'zi boshqarish organlarini saqlash	85035, 3	0,78	130000	0,95	449 64,7	0,17
7. Vazirlar Mahkamasining rezerv fondi	34175, 0	0,31	54175	0,39	200 00	0,08
8. Boshqa harajatlar	222118 2,7	20,35	2692065 ,5	20,0	470 885, 8	-0,35
Davlat byudjetining harajatlari – jami	109130 26,4	100,0	1373250 2,5	100	281 947 6,1	5,42

II.1.5-jadval m'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan quyidagi yo'nalishlarga xarajatlar qilindi. Bu yerda 2009 yilga

jami davlat byudjetidan 10913026,4 mln so'm sarflangan. Shundan ijtimoiy sohaga 6170982,9 mln so'm, fuqarolik jamiyati institutlari, IChB va NNTlarning rivojlanishiga grantlar va mablag'lar uchun 4000 mln so'm, Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish harajatlari uchun 820000,0 mln so'm, davlat hokimiyat organlariga boshqaruv va sud organlarini saqlash xarajatlariga 271905,8 mln so'm, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlariga 85035,3 mln so'm, Vazirlar Mahkamasining rezerv fondiga 34175,0 mln so'm, boshqa harajatlarga 2221182,7 mln so'mni tashkil etgan.

2009-2010 yillarda Namangan viloyati byudjeti harajatlari jami harajatlar 8649084 (106146993-97497909) ming so'mga yoki 8,9 foizga o'sishi kuzatilgan. Harajatlar tarkibi bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, harajatlarning ayrim yirik guruhi, ya'ni ijtimoiy-madaniy tadbirlar, davlat boshqaruv organlarini saqlash, bolali oilalarga nafaqa va tovon pullari, Chernobilchilar uchun harajatlar, viloyati hokimiyatini ko'zda tutilmagan harajatlarni qoplash jamg'armasi va boshqa sarf-harajatlar guruhi bo'yicha ham 2010 yilda 2009 yilga nisbatan ortishi, ayrimlari esa, ya'ni iqtisodiyot harajatlari, kapital qo'yilmalar, mudofaa, huquqni himoya qilish organlari va boshqa tarmoqlarning mahalliy byudjetdan moliyalashtiradigan harajatlari va bir yo'la beriluvchi davlat taqdirlashlari va mukofotlari guruhlari bo'yicha esa kamayishi kuzatilgan.

Iqtisodiy potentsialdan foydalanish holati tahlili va mahalliy byudjetlar holati o'rtasida ma'lum bog'liqligi mavjudki, ushbu bog'liqlik iqtisodiy potentsiallardan foydalanish va mahalliy byudjetlarning o'zini-o'zi ta'minlashlari o'rtasida yaqqol namoyon bo'ladi: viloyat iqtisodiy potentsialining 87 foizini ishlab chiqaruvchi 8 ta hududda iqtisodiy potentsialdan foydalanish darajasi o'sib borishi bilan ushbu byudjetlar o'z-o'zini ta'minlash darajasi o'sib boradi.

Mamlakatimizda bir qator iqtisodchi-olimlar o'zlarining ilmiy ishlarida umumdavlat soliqlarining mahalliy byudjetlarga ajratmalari normativlari uzoq muddatli va barqaror bo'lishi zarurligi hususida to'xtalib o'tganlar. Ularning fikr-mulohozalarini o'rganib chiqqan holda, tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash

tizimini isloh qilishdagi birinchi darajali tadbir - bu ma`lum muddatga (8-10 yilga) yagona barqaror normativlarning joriy etilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Mahalliy hokimiyat organlarining soliq yig'imlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va subventsiyalarni hamda boshqa moliyaviy yordam turlarini qisqartirish maqsadida, rejadan ortiqcha tushgan soliq summalarini taqsimlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak. Yagona barqaror normativlar joriy etilganda subventsiyalarning oshishi keyinchalik soliq tushumlarining ham oshishi bilan qoplanishi mumkin. Ushbu omil ma`lum vaqt tafovuti bilan amalga oshadi, chunki soliq tushumlarini oshirish birdaniga samara bersa, hudud soliq salohiyatini oshirish soliq tushumlarini ma`lum bir vaqt (2-3 yil) o'tgandan keyin ko'paytiradi.

Byudjet tashkilotlarining g'aznalaridagi shaxsiy hisob varaqlari tizimini tashkil qilinishi Markaziy va tijorat banklarini byudjet kassa ijrosi, hisobi va hisoboti kabi ularga hos bo'lmagan vazifalarni bajarishdan halos etadi. Shuningdek, g'aznachilik tizimini joriy qilinishi byudjet shtatlari sonini ko'payishiga olib kelmasligi kutilmoqda. Moliya organlari, byudjet tashkilotlari va tijorat banklarida g'aznachilik tizimining joriy qilinishi munosabati bilan personallar umumiy sonining qisqarishiga olib keladi.

Mahalliy byudjetlar harajatlar tarkibi quyidagi 5 ta guruhdan iborat bo'ladi:

- I. Iqtisodiyot harajatlari;
- II. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar harajatlari;
- III. Davlat boshqaruvi organlari saqlash harajatlari;
- IV. Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq harajatlar;
- V. Boshqa harajatlar.

I. Iqtisodiyot harajatlari quyidagi sohalar harajatlarini o'z ichiga oladi:

1. Uy-joy espluatatsiya xo'jaligi harajatlari;
2. Tramvay-trolleybus xo'jaligi harajatlari;
3. Obodonlashtirish harajatlari;

4. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli tashkilotlar harajatlari;

5. Boshqa harajatlar.

II. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar harajatlari asosan quyidagi sohalar harajatlaridan iborat bo'ladi:

1. Maorif;
2. Madaniyat va ommaviy axborot vositalari;
3. Fan;
4. Sog'liqni saqlash ;
5. Jismoniy tarbiya va sport;
6. Ijtimoiy ta'minot.

III. Davlat boshqaruvi organlari harajatlari quyidagi sohalarni qamrab olgan:

1. Davlat boshqaruvi organlari saqlash harajatlari
2. Maorif, «Qishloq va suv xo'jaligi» vazirligi tashkilotlari rahbarlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari ma'muriy apparati ish haqi bilan bog'liq harajatlari.

IV. Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq harajatlar guruhiga quyidagilar kiradi:

1. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan onalarga nafaqa
2. Ishlamaydigan, 2 yoshgacha farzandi bor onalarga to'lanadigan nafaqa
3. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam.

V. Boshqa harajatlar guruhi quyidagilardan iborat:


1. Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish idoralarini saqlash harajatlari
2. Chernobil AES halokati oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq harajatlar
3. Bir yo'la beriladigan davlat taqdirlashlari va mukofotlarni to'lash harajatlari

4. Saylov, referendum o'tkazish bilan bog'liq harajatlar
5. Kapital qo'yilmalar va loyixalashtirish harajatlari
6. Mudofaa majmui, huquqni himoya qilish idoralari va boshqa tarmoqlarni mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan harajatlar
7. Ko'nikma markazi harajatlari
8. Ko'zda tutilmagan harajatlarni qoplash jamg'armasi
9. Boshqa harajatlar.

Mahalliy byudjetlar harajatlari tarkibida ijtimoiy-madaniy tadbirlar harajatlari katta o'rinni egallaydi. Ularning umumiy harajatlaridagi ulushi 64-66% atrofida bo'lib, ortib borish tendentsiyasiga ega.

7-chizma

Ijtimoiy soha xarajatlarining tarkibi



Iqtisodiy harajatlar umumiy harajatlarining 2-3%i atrofida bo'ladi.

Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq harajatlar esa umumiy harajatlarning 15-17%ni tashkil etadi. Keyingi paytlarda ushbu harajatlarda o'zgarish kuzatilmayapti.

Umumiy harajatlar tarkibida eng kichik ulushga ega bo'lgan harajatlar – bu davlat boshqaruvi organlarini saqlash harajatlari. Bu harajatlar ulushi 1-1,5%ni tashkil etib, yanada kamaytirilishi ehtimoldan holi emas.

Halq ta'limi sohasi o'z ichiga umumta'lim maktablari, maktab internatlar, bog'chalar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, bolalar uylarini qamrab oladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida kunlik ish soatlari talabga va sharoitga asosan, 9, 12, 24 soat belgilanadi. Ushbu muassasalar yasli va bog'cha guruhlariga bo'linadi. Yasli guruhlariga -qatnovchilar yoshi 1-3 yosh, bog'cha guruhlariga qatnovchilari yoshi 3-7 yoshdan iborat bo'ladi.

Maorif sohasi harajatlarini hisoblashda shu sohaning asosiy ko'rsatkichlari muhim o'rin egallaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. O'quvchilarni o'rtacha yillik soni
2. Sinflarning o'rtacha yillik soni
3. Sinf to'liqliligi
4. Haftalik ish yuklamasi
5. Pedstavkalar soni
6. Bog'cha bolalarining o'rtacha yillik soni
7. Bir bolaning bir yilda bog'chaga qatnash kunlari
8. Byudjet me'yori (harajatlar guruhlar bo'yicha)

Maorif sohasi harajatlar tarkibiga quyidagi harajatlar kiradi:

1. Ish haqi va unga tenglashtirilgan harajatlar
2. Ish haqidan ajratmalar
3. Xo'jalik va kantselyariya harajatlari
4. Safar harajatlari
5. O'quv harajatlari
6. Oziq-ovqat harajatlari
7. Kommunal to'lovlari harajatlari
8. Qattiq va yumshoq jihozlar sotib olish harajatlari
9. Orgtexnika sotib olish harajatlari

10. Joriy va to'la ta'mirlash harajatlari

11. Boshqa harajatlar

Maorif sohasi harajatlari tarkibning asosini ish haqi harajatlari egallaydi.

Ushbu harajatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. O'qituvchilar ish haqi
2. Ma'muriy hodimlar ish haqi.
3. O'quv jarayoni hodimlari ish haqi.

O'qituvchilar ish haqi quyidagi 2 hil ko'rinishda hisoblanadi:

1. Asosiy ish haqi.
2. Qo'shimcha haq.

O'qituvchilarning asosiy ish haqlarini hisoblashda ularning toifalari, stavkasi, haftalik darslar soni asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, matematika o'qituvchisi 1-toifali bo'lib, 5 yil ish stajiga ega. Tarif razryadi nomativlariga asosan, 7 belgilangan bo'lsa, asosiy ish haqi $9400 \times 4,913 \times 46182$ so'mni tashkil etadi. Asosiy ish haqidan tashqari o'qituvchilarga asosiy ish haqiga nisabatan quyidagi qo'shimcha haqlar to'lanishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya muassasalari hodimlariga ish haqi quyidagi 2 xil ko'rinishda to'lanadi:

1. Asosiy ish haqi.
2. Ta'til kunlari uchun haq.

Ta'til kunlari mudira, tarbiyachi, Musiqa hodimlari uchun 30 ish kuni, qolgan hodimlar uchun 18 kuni belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Halq ta'limi hodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2005 yil 25 noyabrdagi PQ-227-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda byudjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan yoki aralash moliyalashtiradigan halq ta'limi muassasalari pedagog hodimlari va rahbarlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlarini belgilaydigan Nizom ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizomga asosan:

Byudjet tashkilotlari uchun qo'llaniladigan Yagona tarif setkasi asosida halq ta'limi tizimi muassasalarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi hodimlariga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 12 apreldagi 147-son qaroriga muvofiq Yagona tarif setkasi asosida halq ta'limi davlat boshqaruvi organlari hodimlari mehnatiga haq to'lash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Halq ta'limi tizimi hodimlari mehnatining ish haqi bazaviy tarif stavkasini hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan ustamalar va qo'shimcha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

Halq ta'limi hodimlarining lavozim maoshlari quyidagicha hisoblanadi:

halq ta'limi muassasalarining pedagog hodimlari va rahbar hodimlarining har bir lavozimi va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari asosida shakllantiriladi. Bazaviy tarif stavkasi yagona tarif setkasi bo'yicha tarif stavkasini hamda qonun hujjatlarida belgilangan tarif stavkasini hamda qonun hujjatlarida belgilangan tarif stavkasiga doimiy ustamalarni, shuningdek, pedagog va rahbar hodimlarning ayrim toifalari ish haqiga qo'shilgan kompensatsiya to'lovlarini o'z ichiga oladi;

hodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan ustamalar va qo'shimcha to'lovlar asosida shakllantiriladi.

Halq ta'limi pedagog hodimlarining bazaviy tarif stavkalari;

Hodimning lavozimiga;

Hodimning malaka toifasiga;

Halq ta'limi muassasasining tipiga bog'liq ravishda tabaqalashtiriladi.

Halq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari qo'yidagi jadvalga binoan o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) kontingentiga qarab muassasalar guruhidan kelib chiqib belgilanadi. 2.1.6-jadval

2.1.6-jadval

Halq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari.

Halq ta'limi muassasalarining tipii	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
Umumta'lim maktablari*	1601 nafar va undan yuqori	881-1600	401-880	400 nafargacha
Maktabgacha bolalar muassasalari	9 guruh va undan ortiq	9 guruhgacha		
«Mehribonlik» uylari	201 nafar va undan ortiq	200 nafargacha		
Musiqi maktablari va san'at maktablari	401 nafar va undan ortiq	400 nafargacha		
Maktabdan tashqarii muassasalar	1601 nafar va undan yuqori	881-1600	880 nafargacha	
Bolalar va o'smirlar sport maktablari	Muassasalarni tegishli guruhga kiritish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi			

*umumta'lim muassasalariga umumta'lim maktablari hamda barcha tip va nomdagi maktab-internatlar kiradi.

Xalq ta'limi xodimlarining kasbiy o'sishini rag'batlantirish uchun quyidagi malaka toifalari va ushbu malakalarni olish uchun hodimlarning ma'lumot darajasiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagicha belgilanadi:

O'rta maxsus, kasbiy (pedagogik yoki bajarilayotgan lavozim vazifalariga muvofiq bo'lgan) ma'lumotga ega bo'lgan, toifasi bo'lmagan xodim;

bakalavr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan ikkinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan birinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan oliy toifali mutaxassis.

Xalq ta'limi xodimlariga malaka toifalari berish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Mexnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan Raxbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi tug'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Xalq ta'limi tizimida xodimlarning bazaviy tarif stavkasini o'zgartirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga muvofiq byudjet tashkilotlari xodimlarining ish xaqi oshganda;

hodim xalq ta'limi muassasasida boshqa lavozimga o'tganda;

hodimning malaka toifasi o'zgarganda (oshganda yoki pasayganda) amalga oshiriladi.

Bazaviy tarif stavkasini o'zgartirish halq ta'limi muassasasi buyicha buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Xodim Xalq ta'limining bir muassasasida boshqa lavozimga o'tgan taqdirda va shu munosabat bilan bazaviy tarif stavkasi o'zgarganda mehnat shartnomasi o'zgarishi tartibini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasining Mexnat kodeksi qoidalariga qo'llaniladi.

Umumta`lim muassasalarining o`rta maxsus, kasbiy yoki oliy ma`lumotga ega bo`lmagan, mazkur Nizom kuchga kirgan paytda pedagogik faoliyatni amalga oshirayotgan pedagog xodimlari uchun, ularning pedagogik tajribasini, shuningdek, ular 2006-2007 o`quv yilida ma`lumot olish uchun tegishli o`quv muassasalariga o`qishga kirishlarini kisobga olgan holda, o`rta maxsus, kasbiy ma`lumotga ega bo`lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

Oliy yoki o`rta maxsus, kasbiy ma`lumotga ega bo`lmagan shaxslarni umumta`lim muassasalariga pedagogik lavozimlarga qabul qilishga yo`l qo`yilmaydi.

Oliy ta`lim muassasasining 4-kursida o`qiyotgan shaxslar pedagoglik ishini amalga oshirish uchun qo`yilishi mumkin va ularga o`rta maxsus, kasbiy ma`lumotga ega bulgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

Ustamalar va qo`shimcha haqlar quyidagicha belgilanadi.

Barcha tip va nomdagi umumta`lim maktablarining o`z kasbiga sodiq o`qituvchilarini moddiy rag`batlantirish va yuksak kasbiy va xalol mexnatini rag`batlantirish, tashabbuskorligi va kasb mahoratini o`stirish maqsadida umumta`lim muassasalarining o`rnak ko`rsatgan hodimlarini rag`batlantirishning Direktor jamg`armasidan to`lanadigan quyidagi:

o`quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar va sinfdan tashqari ishlar olib borilishining yuksak darajasi uchun tegishli malaka toifasiga ega bo`lgan o`qituvchi bazaviy tarif stavkasining 15 foizigacha miqdorda;

kasb mahorati va ta`lim jarayoniga qo`shilgan aniq hissa, yukori samaradorlik va o`qitish sifati uchun tegishli malaka toifasiga ega bo`lgan o`qituvchi bazaviy tarif stavkasining 25 foizigacha miqdorda har oylik ustamalar belgilanadi.

Bazaviy tarif stavkasiga qo`shimcha haqlarning quyidagi turlari saklanib koladi:

sinf rahbarligi uchun – eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

daftarlar va yozma ishlar muntazam ravishda tekshirilish uchun – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha haqlar ushbu qo'shimcha haqni moliyalashtirish uchun mahsus ajratiladigan byudjet mablag'laridan to'lanadi.

Xodimdan qo'shimcha pedagogik malakani talab etadigan mexnatning alohida sharoitlarida ishlaganlik uchun bazaviy tarif stavkasiga ustamalar qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Hodimdan qo'shimcha pedagogik malakani talab etadigan pedagogik lavozimlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza kilish vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Noqulay mexmat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga mazkur Nizom kuchga kirgunga qadar amalda bo'lgan ustamalar saqlanib qoladi, ularning miqdori esa hodimning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlarda xisoblab chikiladi.

Mehnatga soatbay Haqi to'lash tartibi va shartlari quyidagicha

Pedagog hodimlar mehnatiga soatbay xaq to'lash:

ketma-ket ikki oydan ortik bo'lmagan davrda kasallik yoki boshka sabablar bilan ishda bo'lmagan hodimlarning o'rnini bosish tartibida ishlab berilgan soatlar uchun xak, tulashda;

boshqa muassasalardan jalb etiladigan o'qituvchilar va boshka mutaxassislarning, shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha boshqa maktablardan jalb etiladigan o'qituvchilar va mutaxassislarning pedagogik ishi uchun haq to'lashda;

o'rnini bosish tartibida umumta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan o'tilgan o'quv soatlari uchun xaq to'lashda qo'llaniladi.

Umumta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga soatbay haq to'lash stavkalari miqdori belgilangan tartibda aniqlanadi.

Xalq, ta'limi muassasasining rahbar xodimi tomonidan asosiy lavozimning bir haftada 10 soatgacha hajmda o'qituvchi lavozimi bilan qo'shib olib borilishiga (o'quv yuklamasi yuritilishiga) yo'l qo'yiladi.

II.2.7-jadval

Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 21 dekabrda 275-son qaroriga asosan

Halq ta'limi hodimlariga haq to'lash tarif stavkalari

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari miqdorlari				
	Oliy malaka toifali	Birinchi malaka toifali	Ikkinchi malaka toifali	Oliy ma'lumotli	O'rta mahsus ma'lumotli
1. Umumta'lim maktablarning boshlang'ich sinflari o'qituvchisi, o'qituvchi-logopedi, lagopediya shaxobchasi mudiri	66096	62304	58344	54482	50928
2. Umumta'lim maktablarining yuqori sinflari o'qituvchisi	60851	55184	51685	48276	45166
3. Halq ta'lim boshqaruv organi huzuridagi metodik kabinet metodisti, monitoring bo'limi (sektori)ning inspektor-metodisti, kasbga yo'naltirish va o'quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi markazi hodimi	41369	38408	35466	32627	X
4. Maktabdan tashqari muassasaning o'qituvchi-treneri, oliy sport mahorati bolalar va o'smirlar maktablari, Olimpiya zahiralarini iqtisodlashtirilgan bolalar va o'smirlar maktablarining, bolalar va o'smirlar sport maktablari	49465	46208	43246	40303	37463
5. Musiqa maktabi, san'at maktabi o'qituvchisi	46208	43246	40303	37463	34736

6. Halq ta'limi barcha tipidagi muassasalrning tarbiyachisi, katta tarbiyachisi (tarbiyachi-metodist), psixologi va maktabdan tashqari muassasalar instruktor-metodisti, kontsertmeysteri	40303	37463	34736	32119	29658
7. Bolalar maktabgacha muassasalari o'qituvchisi (logoped, defektolog, til bo'yicha fanlar)	43246	40303	37463	34736	32119
8. Halq ta'limi barcha muassasalaridagi metodist (3-bandda ko'rsatilgandan tashqari), pedagog-tashkilotchi, to'garaklar, studiyalar, seksiyalar rahbarlari, barcha ixtisosliklar instruktorlari, katta vojatiy, akkomponiator, musiqa rahbari, ekskursovod, madaniyat ishlari bo'yicha tashkilotchi	35466	32627	29901	27298	24825

Halq ta'limi muassasalari pedagog hodimlari mehnatini normalashtirish yillik, choraklik va oylik ish rejalariga asoslangan bo'ladi.

Yillik ish rejasi o'quv, tarbiyaviy va tashkiliy tusdagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti sarfi ko'rsatilgan holda ularning ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning yillik ish rejasi choraklar va oylar bo'yicha taqsimlangan bir yildagi 1548 soat miqdoridagi ish vaqtining jamlangan xisobidan kelib chiqadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasi O'zbekiston Respublikasi Xalq. ta'limi vazirligi tomonidan Mehnat va axolini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Yillik ish rejasi har bir pedagog hodim uchun yakka tartibda belgilanadi va kengaytirilgan pedagogik kengashda muxokama qilingandan keyin halk ta'limi muassasasi ma'muriyati tomonidan tasdiklanadi.

Ish rejalarining bajarilishini nazorat qilish halk ta'limi muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi yillik ish rejalarini ishlab chiqishda halq ta'limi muassasasi ma'muriyati o'qituvchilar va pedagog hodimlar boshqa toifalarining o'quv yuklamasi soatlari hajmini umumiy belgilangan normativlarga nisbatan kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin. Bunda o'quv yuklamasining belgilangan normativlariga tuzatish kiritish hajmi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiklangan namunaviy rejadagiga nisbatan kamaytirish yoki ko'paytirish tomonga 10 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

Alohida hollarda halk ta'limi muassasalarida hodimning roziligi bilan kasblar (lavozimlar)ni birga qo'shib olib borishga, shuningdek, o'zining asosiy ishi bilan birgalikda ishda vaqtincha bo'lmagan hodimlarning vazifalarini bajarishga yo'l kuyiladi. Bunda lavozimlarni birga qo'shib olib borish bo'yicha ish vaqtining jami davom etishi mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan jami ish vaktining 50 foizidan, ya'ni yil mobaynida 774 soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Halk ta'limi muassasasining har bir xodimi ish rejasi bajarilishi to'g'risida pedagogik kengashda yoki halk ta'limi muassasasini boshqarishning boshqa kollegial organiga yarim yilda kamida bir marta hisobot beradi.

Sog'liqni saqlash ijtimoiy-madaniy ehtiyojlar ichida asosiylardan biridir. Shu sababli aholi sog'lig'ini saqlashda byudjet mablag'larini kattadir. Ushbu soha umumharajatlarning 60 foizi byudjetdan moliyalashtiriladi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida 1355 ta kasalxona bo'lib, ularda 252 mingdan ortiq o'rin xizmat ko'rsatmoqda. Har 10 ming aholiga 122 tadan o'rin to'g'ri keladi. Poliklinikalar soni 3290 dan ortiq. Sog'liqni saqlash muassasalarida 70 mingdan ortiq vrach, 215 mingdan ortiq o'rta tibbiyot hodimlari xizmat qilmoqda.

Har 10 ming aholiga vrach va hamshiralar soni bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turilsa-da, lekin tibbiyot hodimlari malakasini yanada oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashuvi davrida kasalxonalarda xo'jalik hisobidan xizmat ko'rsatuvchi xonalar xizmat qilmoqda. Lekin tibbiyotni to'liq xo'jalik hisobiga o'tkazish rejalashtirilmagan. Respublikamiz Konstitutsiyasida har bir fuqaro o'z sog'lig'ini tiklashga, davolanish davrida nafaqa olish huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli, hozirgi asosiy harajatlar byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlash tizimi quyidagi bo'linmalarni o'z ichiga oladi:

1. Kasalxonalar, ambulatoriyalar
2. Poliklinikalar, fel dsher-akusher punktlari (FAP)
3. Sanatoriya-profilaktoriya muassasalari
4. San.epid stantsiyalar
5. Dispanser va diagnostika markazlari
6. Laboratoriya va dorixonalar
7. Sudmedekspertiza muassasalari.

Hozirda dorixonalar, sanatoriya-profilaktoriya muassasalari hususiyashtirilib, xo'jalik hisobidan faoliyat yurgizmoqdalar. Sog'liqni saqlash sohasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Davolash muassasalarida o'rinlar soni
2. Poliklinikaga qatnash kunlari
3. Tibbiyot hodimlari soni
4. Bir o'rinning 1 yildagi band bo'lishi soni
5. Aholining o'rinlar bilan ta'minlanganlik foizi.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar ichida o'rinlarning o'rtacha yillik soni katta ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$O'_{o'rtacha\ yillik\ soni} * K_1 + \frac{(K_2 - K_1) * Z}{12}$$

- K_1 - amaldagi o'rinlar soni
 K_2 - yil ohirida kutiladigan o'rinlar soni
 Z - Yangi o'rinlarning yil ohiriga ishlash muddati

Poliklinikalarda bir vrach bir kunda 15-20 nafar bemorni qabul qilish mumkin. Tumanlarda 20-25 ming aholi uchun 1 poliklinika xizmat ko'rsatishi kerak. Poliklinikalar 1995 yil 1 yanvardan boshlab oilaviy xizmat turiga o'tgan. Ya'ni bir vaqtning o'zida ular oiladagi katta yoshdagi hamda go'dak farzandlar uchun kerakli tibbiy muolajalarni ko'rsata oladilar. Aholining kasalxonalarga bo'lgan talabi quyidagicha aniqlanadi. Masalan,

1. Shahar aholisi 400 ming
2. Kasalxonada o'rtacha davolanish kuni 18 kun
3. Bir o'rinning 1 yildagi o'rtacha bandligi 320 kun
4. Aholining kasalxonada yotib-davolanishi o'rtacha 20 foiz

$$\text{O'rin ta'minoti} * \frac{400000 * 20 \% * 18}{320} * 4500 \text{ o'rin.}$$

Demak, ushbu shaharga 4500 o'rinli kasalxona bo'lishi talab etiladi.

Kasalxonadagi vrachlar mansabi soni quyidagicha aniqlanadi:

$4500 \times 20 \% \times 225$ ta, ya'ni kasalxonadagi mavjud o'rinlar sonining 20 foizini vrachlar tashkil etadi. O'rta va kichik tibbiy hodimlar davolash bo'limlari yo'nalishi va vrachlik mansablar soniga nisabatan belgilanadi. Ma'muriy xizmat hodimlar stavkalari amaldagi normativ hujjatlariga asosan, o'rinlar va vrachga qatnov kunlariga nisabatan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining o'z yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos bo'lgan va eng muhim qoidalaridan biri bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida oldindan kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazilishidir. Qolgan barcha qoidalar ijtimoiy vazifalarni hal etishga, aholini ijtimoiy himoyalash sohasida

qat'iy kafolatni vujudga keltirilishga bo'ysundiriladi. Tarix sabog'i shundaki, uning aynan keskin burilishlarida ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar g'oyat keskinlashadi. Milliy barqarorlikka taxdid soluvchi qonuniyatlar paydo bo'ladi. Shu sababli aholini ijtimoiy himoya qilish davlat oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining mahalliy byudjeti hisobidan 3 hil ko'rinishda ijtimoiy yordam ko'rsatiladi:

1. 2 yoshgacha farzandi bor ishlamaydigan yoki byudjet muassasida ishlaydigan onalarga farzandi 2 yoshga to'lgunga qadar beraladigan nafaqa.
2. 16-18 yoshgacha farzandi bor oilalarga to'lanadigan nafaqa.
3. Kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan moddiy yordam.

Ushbu ijtimoiy himoya mablag'lari hududlardagi o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadi va mahalliy byudjet hisobidan ajratilgan mablag' hisobidan to'lanadi. 2 yoshgacha farzandi bor ishlamaydigan onalarga nafaqalar to'lash tartibi quyidagicha:

1. To'lash muddati 2002 yil 1 fevraldan boshlab 12 oygacha to'lanadi. Lozim bo'lsa, Yana 1 yilgacha uzaytiriladi. Nafaqa miqdori eng kam ish haqining 200 foizidan iborat. Taqdim etiladigan hujjatlar quyidagilar: farzandi tug'ilganligi to'g'risida guvoxona nusxasi, onaning mehnat daftarchasidan nusxa, oila daromadi to'g'risida ma'lumot, yashash joyidan ma'lumot. Ishlamaydigan onalarga nafaqalar MFY tomonidan to'lanadi. Oilada 1 va undan ortiq 2 yoshgacha farzandlari bo'lsa, nafaqa 1 tasi uchun to'lanadi. Ishlaydigan onalarga ushbu nafaqa pullari ish joyidan, agarda ona byudjet muassasasida ishlasa byudjet hisobidan to'lanadi.

2. 16-18 yoshgacha farzandi bor oilalarga nafaqa to'lash tartibi:

ushbu nafaqa turi oilasida 16 yoshgacha farzandi bor, kollej va litseyda o'qiydigan 18 yoshgacha farzandi bor oilalarga to'lanadi. To'lash muddati 1 oydan 6 oygacha. Nafaqalarning tayinlanish miqdori quyidagicha:

oilasida 16-18 yoshgacha mavjud farzandlar soniga qarab, amaldagi eng kam ish haqi hisobidan:

- a) bir farzand bo'lsa -50 foiz
- b) ikki farzandi bo'lsa -100 foiz
- v) uch farzandi bo'lsa -140 foiz
- g) to'rt va undan ortiq farzandi bo'lsa -175 foiz hisoblanadi.

3. Kam ta'minlangan oilalarga to'lanadigan moddiy yordam mahalladagi o'ta nochor oilalarga belgilanadi. To'lash muddati 3 oy. Moddiy yordam pul 1 oilaga bir yilda 1 marta tayinlanadi. Uning miqdori amaldagi eng kam ish haqining 1,5-3 barobarigacha tayinlanadi. Ushbu nafaqa va yordam puliga muhtoj oilalar o'zlari yashaydigan hudud MFYlarga yozma ravishda murojaat etadilar. MFYlarda ushbu arizalarni o'rganish bo'yicha mahsus komissiya tuzilgan bo'lib, ushbu komissiyaning qaroriga asosan nafaqa tayinlash yoki tayinlanmaslik masalasi hal etiladi va arizaga yozma ravishda javob beriladi. Nafaqa tayinlashga MFYlarda har bir nafaqa turi bo'yicha belgilangan mezon asos bo'lib xizmat qiladi. Ariza yozuvchi oilaning daromadlari taqdim qilingan ma'lumotlar asosida belgilangan mezondan ortiq bo'lsa, nafaqa tayinlash rad etiladi. Mezonga yetmasa, nafaqa tayinlash to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Moddiy yordam tayinlashda arizachilarning turmushi, yashash sharoiti to'liq o'rganiladi. Ushbu yuqoridagi nafaqalarni tayinlash va to'lash nazorati hududiy moliya organlari hamda Respublika Nazorat-taftish boshqarmasining joylardagi vakillar zimmasiga yuklangan.

II.3. Mahalliy byudjet mablag'laridan unumli foydalanish tahlili.

Davlat moliyasini boshqarishda islohotlarni o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ularning rolini oshirishni talab etadi. Shu bilan bir vaqtda moliyaviy bazani mustahkamlash, butunlay yangi moliya-byudjet va soliq mexanizmini yaratish,

byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish hamda byudjet ijrosi samaradorligini ta'minlashning yangi uslubiyotini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Respublikamizda byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida amalga oshirish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet intizomini ta'minlash byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Byudjet jarayonlarida, jumladan, byudjet ijrosini qat'iy ta'minlashda byudjetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, byudjet mablag'laridan maqsadli, samarali foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

Barcha islohotlarning maqsadi byudjet siyosatida davlat byudjeti taqchilligini belgilangan me'yoridan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik, byudjet xarajatlarini samaradorligini oshirish, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va manzilli bo'lishini ta'minlashdir. Respublikamizda davlat moliyasini boshqarish tizimi ish jarayonida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni hal qilish uchun u yanada takomillashtirilishi kerak.

II.3.8- jadval

Namangan viloyati maxalliy byudjet daromadlari tarkibi va tuzilishi bo'yicha (2009-2010 yillar bajarilishi)

	Daromadlar	2009yil		2010yil	
		miqdori, ming.so m	salmog 'i,%da	miqdori, ming.so' m	Salmog'i, % da
	Qo'shilgan qiymat solig'i	4598019 1	24.0	6447544 6	25.0
	Yuridik shaxslardan olinadigan daromad soligi'i	6525300	3.0	7021384	2.7
	Ulgurji savdo korxonalari yalpi daromadiga solinadigan soliq				
	Yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	3385597	2.0	4245130	1.6
	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga	5680426	3.0	6216156	2.4

	solinadigan soliq				
	Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq	53649217	28.1	68966631	26.7
	Maxalliy soliq va yig'imlar –Jami	14634550	7.6	22598119	8.7
	Davlat boji	2143391	1.1	5755810	2.2
	Yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar	2004122	1.0	3147215	1.2
0	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	379827	0.2	476977	0.2
1	Musodara qilingan tovar moddiy qiymatliklarini sotishdan va qo'yilgan jarimalardan tushum	3475484	1.8	5504739	2.1
2	Atrof muxitni ifloslantirganlik uchun soliq va to'lovlar				
3	Barcha mulkm shaklidagi kichik korxonakar uchun yagona soliq	19356358	10.1	31440553	12.2
4	Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash solig'i	3099596	1.6	2520012	1.0
5	Ijaraga berilgan mulk uchun ijara to'lovi	106872	0.05	265461	0.1
6	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq	4266581	2.2	6275417	2.4
7	Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishdan ilgari Biznes-fondga yo'naltirilgan 15foiz miqdoridagi mablag'lar tushumi	314078	0.16	91163	0.03
8	Aksiz solig'i	10411266	5.5	7777825	3.02
9	Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i jami	15204980	8.0	20690679	8.03
	Daromadlarni jami	190617836	100	257476233	100

Manba Namangan viloyati Moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tay`orlandi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki Namangan viloyati maxalliy byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning o'zni katta bo'lib , 2008 yilda byudjet daromadlari 130902359 ming so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkichni 100% deb

olsak uning tarkibida eng katta ulushni jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq undan keyin esa qo'shilgan qiymat solig'i tashkil etmoqda. qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy mohiyatiga ko'ra egri soliq hisoblanib uning ob'ekti bo'lib tovar, ish va xizmatlarni realizatsiya jarayoni hisoblanadi. Bu degani maxsulot ishlab chiqarilgani bilan uni sotilmasa soliq hisoblanmaydi va korxona zimmasida QQS bo'yicha xech qanday majburiyat yuzaga kelmaydi. QQSning stavkasi keyingi yillarda o'zgarishsiz qolmoqda ya'ni tovar aylanmasiga nisbatan 20%. QQS ni xisoblanishi, uning byudjetga to'lanishi. soliq bo'yicha imtiyozlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksinig (2007yil 25 dekabr) yettinchi bo'limida aks etgan. QQS bo'yicha nolik stavka xam mavjud bo'lib, bu stavka maxsuloteksportiga nisbatan qo'llaniladi. Demak ushbu soliq bo'yicha tushum 2008 yilda 25326115 ming so'mni tashkil etib jami daromadlar tarkibida 19.3% ni tashkil etgan. 2009 yilda bu soliq bo'yicha daromadlar keskin ortgan ya'ni 45980191 ming so'm va 24% daromadni tashkil etgan. Bu soliq bo'yicha tushumning ortishiga sabab viloyatimizda uyali aloqa xizmatini kursatuvchi kompaniyalar faoliyatini rivojlanib borayotganligi, shuningdek avtomobil yetqiyot qismlarini ishlab chiqaruvchi zavodning ishga tushganligi bilan izoxlanishi mumkin. 2010 yilad esa bu soliq bo'yicha 64475446 min so'm daromad olingan, yani avvalgi ikki yildagidan kuproq tushumga ega bo'lingan. Bunga sabab, ushbu soliqni to'lovchi korxonalar aylanmasining ortganligi va QQS ga tortiladigan xizmat turlarining kupayganligidir. Bu soliq byudjet daromadlarini shakllantirishda kurinib turibdiki salmoqli urinni egallyapti, Butun dunyoda ushubu soliq mavjud bo'lib xech qaysi davlat undan voz kecholmaydi, chunki daromadning katta qismi aynan shu soliq xisobiga shakllanadi, jumladan O'zbekistonda xam. Keyingi soliq bu yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'lib bu soliq faqat yuridik maqomga ega bo'lgan soliq to'lovchilar uchun tegishlidir. Bu soliqning stavkasi yildan yilga kamayib bormoqda sabab xozirgi kunda daromaddan olinadigan soliq turlari stavkasi kamaytirib borilmoqda rag'batlantirish va tadbirkorlikka qiziqishni ortirish maqsadida. Mustaqillikning

dastlabki yillarida bu soliqning stavkasi 36% bo'lgan bo'lsa hozirgi kunda 9% ni tashkil etadi. Bu soliq bo'yicha xam imtiyozlar mavjud , uning xisoblanishi , to'lanishi , xisobotlarni topshirilishi Soliq kodeksining beshinchi bo'limida yoritilgan. Demak foyda solig'i bo'yicha daromad 2008 yilda 5419159 ming so'mni, 2009 yilda 6525300 mig so'mni, 2010 yilda 7021384 ming so'mni tashkil etgan. Bu soliqning jami daromadlardagi ulushi mos ravishda 4.1%, 3%, 2.7% ni tashkil etgan. Bunga sabab soliq stavkasining yildan yilga kamayib borishi va soliq to'lovchilarning aksariyatini soddalashtirilgan soliq solish tartibiga o'tib ketishidir. Keyingi soliq yuridik shaxslardan olinadigan mol mulk solig'idir. Hozirgi paytda mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo'lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o'ziga xos o'rin tutadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i davlat byudjetiga daromadni ta'minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muxim vositasi xisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat byudjeti manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexnizmi bu-yuridik shaxslar molmulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui xisoblanadi. Bu majmua: soliq sub'ekti, soliq ob'ekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Hozirgi paytda yuridik shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortish mexanizmida mavjud bo'lgan muammolar avvalo soliqqa tortish ob'ektini aniqlash tartibi va soliq stavkasi bilan bog'liqdir. "Yuridik shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni xisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'qrisida"gi yo'riqnomaga asosan, soliqqa tortiladigan ob'ekt deyilganda korxonalar balansida bo'lgan asosiy vositalar shu jumladan, lizing shartnomasiga ko'ra sotib olingan vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi chegirib tashlangan o'rtacha yillik qoldiq qiymati nazarda tutiladi.

Xozirgi paytda xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi asosiy fondlarni yangilash kerak. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xo'jalik faoliyatida yangi ilqor texnologiyalardan foydalanish jaxon andozalariga mos maxsulot ishlab chiqarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan korxonalarda eskirish miqdorini soliqqa tortish doirasidan chiqarib, asosiy fondlarni yangilash yoki texnologik yangilanish shaklini to'qri amalga oshirishni tashkil etish zarur. Fikrimizcha, soliqni asosiy vositalar dastlabki qiymatiga ko'ra xisoblash korxonalarini modernizatsiyalash va eskirgan uskunalarini almashtirish uchun raqbat bo'la olmaydi. Boshqacha aytganda, mol-mulk solig'ini asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatidan undirish tartibini saqlab, bozor munosabatlarini shakllantirib bo'lmaydi.

Yuridik shaxslar uchun soliq solish ob'ekti bo'lib asosiy vositalar (qonun qujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yerning qiymati bundan mustasno) va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish ob'ektining qiymati xisoblanadi. Soliq solish ob'ekti bo'lib, shuningdek, me'yordagi muddatlarida o'rnatilmagan uskunalarining qiymati xisoblanadi. Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizasiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasi lizing xisoblanadi:

- a) ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshsa;
- b) ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilanadigan narxda sotib olish xuquqiga ega bo'lsa;
- v) ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;
- g) to'lovlarning joriy summasi butun ijara davri uchun ijaraga olinadigan vositalar qiymatining to'qson foizidan oshsa.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati xisobot yilining 1 yanvaridagi va xisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan summani xamda xisobot davri qolgan barcha oylari xar bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo'lishdan olingan son sifatida aniqlanadi. Xisobot davriga soliqni

xisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati xisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, xisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va xisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan summa sifatida aniqlanadi. Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini xisoblab chiqarishda kiritish oyi to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, o'rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kundan boshlab xisoblanadi. Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladigan eskirishni chegirgan xolda, buxgalteriya xisobining quyidagi xisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

- asosiy vositalarni xisobga olish xisobvaraqlari;
- uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni xisobga olish xisobvaraqlari;
- nomoddiy aktivlarni xisobga olish xisobvaraqlari;
- tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan ob'ekt qismida) xisobga olish xisobvaraqlari;
- o'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yor muddatlarida o'rnatilmagan uskuna qismida) xisobga olish xisobvaraqlari.

Soliq stavkalari quyidagicha:

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga 3,5 foiz stavkasi bo'yicha soliq solinadi.
- me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan uskuna uchun mol-mulk solig'i ikki baravar ko'paytirilgan stavka bo'yicha to'lanadi.

Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar (foydalanilmagan uskunalar) uchun mol-mulk solig'i ikki baravar stavka bo'yicha to'lanadi. Ko'rsatilgan imtiyoz savdo vositachi korxonalarga, shuningdek erkin almashtiriladigan valyutaga xom ashyo tovarlari - paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neftmaxsulotlari, gaz kondensati, tabiiy gaz, elektr energiyasi, qimmatbaxo, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tatbiq etilmaydi.

Buni xal etish uchun maxalliy soliqlarga aloxida e'tibor berish , ularni to'lovchilari soni ortishiga erishish , yangi sub'ektlarni ishga tushirish, ular uchun qulay sharoitlarni ta'minlash zarur bo'ladi.

Eksport maxsuloti ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan, vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'linmalari xisoblangan korxonalar uchun quyidagi miqdorlarda sotishning umumiy xajmida o'zi ishlab chiqargan maxsulot (ishlar, xizmatlar)ning eksportdagi ulushiga bog'liq xolda mol-mulk solig'ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilanadi:

II.3.9-jadval

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalar

	To'lovchilar	Soliq solinadigan bazaga nisbatan% larda soliq stavkalari
	Yuridik shaxslar	3,5
	o'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi xissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun:	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy qajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30 %ga pasaytiriladi
	sotishning umumiy xajmida 30 foiz va undan ortiq	belgilangan stavka 50 %ga pasaytiriladi

Manba Uz.R.Prezidentining 2010 yil 27 dekabrda qaroridan olindi.

Jadvaldan kurinib turibdiki jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar yildan yilga ortib , uning jami daromadlardagi ulushi 26 va 30 foiz o'rtasida tebranib turibdi, bunga ish xaqining oshirib borilishi sabab bo'lmoqda.

Kichik korxonlardan olinadigan yagona soliqning ulushi xam ancha yuqori ya'ni 10 foizdan ortiqni tashkil etmoqda.

Bu soliq viloyatimizda asosan yog' moy ishlab chiqaruvchi korxonalar va vino maxsulotlarini ishlab chiqaruvchilar zimmasiga to'g'ri keladi.

Turli davlat dasturlari va loyihalarni byudjet mablag'lari bilan moliyalashtirishning tarkib topgan amaliyoti moliyalovchi organ tomonidan bir oluvchiga yo'llangan moliyaviy mablag'lar boshqasiga tushishi mumkin bo'lgan vaziyatni istisno etmaydi. Agar davlat mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish ular ajratilgandan keyingina boshlansa, davlat byudjeti ko'p narsani boy beradi. Keyingi moliyaviy nazoratning samarasizligi shundaki, uning xulosalari byudjetdan mablag' oluvchi o'ziga ajratilgan mablag'larini amalda sarflab bo'lganidan keyin chiqariladi. Vaholanki, joriy nazoratni, ya'ni byudjet mablag'lari o'zlashtirilishi jarayonining o'zi nazorat qilinishini ta'minlash muhimdir. Yuqoridagi holatning asosiy sabablaridan biri joriy byudjet ijrosi tizimida, moliya organlari sust rolga ega bo'lganligi va shu bilan bir vaqtda bank va byudjet tashkilotlariga yuklatilgan funksiyalarni mustaqil bajarib, moliya organlarini amalga oshirilgan byudjet jarayoni faktlaridan keyingina xabardor qilinganidir. Buning natijasida mahalliy byudjetlarda mablag' yetishmovchiligi yuzaga kelib, yuqori turuvchi byudjetdan byudjet ssudasini olishga to'g'ri keladi. Mahalliy byudjetlar tarkibida, respublikamiz aholisiga xaratilgan o'ta muhim ijtimoiy tadbirlar bo'lganligi uchun dolzarb masalalardan biri daromadlarning tushishi bilan xarajatlarni amalga oshirishi kerak bo'lgan vaqt o'rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etishdir. Demak, davlat byudjeti ijrosining yangi mexanizmini amaliyotga kiritish bugungi kunda byudjet islohotlarining yirik yo'nalishlaridan biri desak xato bo'lmaydi, chunki davlat moliyasini samarali boshqarish zaruriyati mavjud. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish uchun byudjet xarajatlarining nazoratini kuchaytirish talab etiladi. Davlat moliya tizimida o'tkazilayotgan islohotlar davlat xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish degani bu – byudjet

mablag'lari, byudjet tizimining har bir bo'g'ida amaldagi qonunchilikka muvofiq qanday maqsadga mo'ljallangan bo'lsa, o'sha maqsadni amalga oshirish uchun o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishi, aniq sarflanish demakdir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nazoratini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Islohotlarning maqsadi byudjet siyosatida davlat byudjeti taqchilligini belgilangan me'yordan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik, byudjet xarajatlarini samaradorligini oshirish, ijtimoiy xarajatlarning aniq maqsadli va manzilli bo'lishini ta'minlashdir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni, bozor mexanizmining takomillashtirilishi va islohotlarning tobora chuqurlashib borishi har bir iqtisodiy jarayonni chuqur tahlil qilishni taqozo qilmoqda. Byudjet jarayonini mavjud qonunchilik asosida, byudjet ijrosini belgilangan parametrlar doirasida ijro etish, byudjetdan mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish hamda mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanish, byudjet intizomini ta'minlash byudjet tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Byudjet jarayonlari, jumladan, byudjet ijrosi uni bajarilishini qat'iy ta'minlashda byudjetdan birinchi darajali ustuvor ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirish, ulardan maqsadli, samarali foydalanishda byudjet intizomini mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Byudjet ijrosi shunday jarayonki, u moliya yili mobaynida to'liq va o'z vaqtida, har bir manba bo'yicha daromadlarni tushishini, shuningdek, korxona va tashkilotlarni tasdiqlangan byudjet summasi chegarasida moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Byudjet ijrosi kassa birligi, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish hisobini yuritish, byudjet tiniqligi, byudjet majburiyatlarini limiti, shartnomalarni ro'yxatga olish kabi tamoyillarga asoslanadi. Byudjet mablag'larini taqsimlovchilari, taqdim qilingan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisobkitobni amalga oshiruvchilar – byudjetdan mablag' oluvchilardir yoki byudjet tashkilotlaridir. Byudjet amaliyotida mablag'larni

sarflash jarayoni uch bosqichga bo'linadi.

1. Tasdiqlangan byudjet mablag'larini oluvchilarga yetkazish bosqichi Respublika va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan tashkilotlar e'tiboriga byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tasdiqlangan miqdori yetkaziladi. Bu bosqichning asosiy vazifasi – xarajatlarni amalga oshirishdagi majburiyatlarni qabul qilishda byudjet tashkilotlariga byudjet majburiyatlarini limitini belgilash va yetkazishdir. Byudjet majburiyatlarining limiti-byudjet ijrosini amalga oshiruvchi, byudjet mablag'larini taqsimlovchi va oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan byudjet majburiyatlarining yig'indisidir.

2. Byudjet xarajatlarini moliyalashtirish bosqichi Byudjet tashkilotlarining moliyalashtirish limiti – joriy moliya yilida beriladigan pul mablag'larining chegarasidir. Byudjet tashkilotlari faqat yuqori byudjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan chegaralangan mablag'larning sarflashni amalga oshirish huquqiga ega bo'lishlari kerak. Boshqacha qilib aytganda, byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish rejasining hajmi davlatning byudjetdan mablag' oluvchiga byudjet majburiyatlarini qabul qilish huquqining berilishidir.

3. Byudjet xarajatlarini kassali ijro etish bosqichi Bu bosqichda belgilangan tartibda va chegaralangan mablag'lar doirasida, tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan byudjet majburiyatlarini to'lovi amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan majburiyatlarning to'lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan byudjet mablag'i oluvchilarining taqdim qilgan va byudjet majburiyatlarni ijrosini tasdiqlovchi hujjatlar asosida xarajatlar amalga oshiriladi. Byudjet ijrosi jarayonining har bir bosqichi molyaviy nazorat bilan birgalikda olib boriladi. Byudjet mablag'larining ishlatilishi nazorati orqali davlat va mahalliy boshxaruv organlari muntazam ravishda tasdiqlangan byudjetning daromad va xarajatlar rejalarini to'liq va sifatli bajarilishini nazoratga olish, ularning bajarilishiga ta'sir qiluvchi turli salbiy omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun zudlik bilan zarur choratadbirlar belgilash imkoniga ega bo'ladilar. Byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishga esa samarali nazorat tizimini

shakllantirmasdan turib erishib bo'lmaydi. Bu sharoitida moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning ham maqsadi, vazifalari va shakllari tubdan o'zgaradi. Endi u faqat jazolovchi organ sifatida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur mablag'larni ta'minlashi, byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilishni nazorat qilish, maslahat berish kabi vazifalarni bajaradi. Davlat mablag'lari hisobi ga olingan davlat mol-mulkini to'liq saqlanishini ta'minlashda ham nazorat muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng o'z daromadlarini mustaqil tasarruf etadigan, o'z xarajatlarini o'zi qoplaydigan bo'ldi. Demak, respublika o'z byudjetiga ega bo'lishi bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga e'tibor bergan holda, makroiqtisodiy va moliyaviy barxarorlikni mustahkamlashda Davlat byudjetining ustuvor vazifalari qilib qo'yildi. Bundan ko'zlangan maqsad respublikamizning kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ravnaqi, ulkan iqtisodiy o'zgarishlarni ta'minlash, sarflanayotgan har bir so'm byudjet mablag'i respublikaning kelajak ravnaqi va istiqboli uchun o'z natija va samarasini berishi kerakligidir. Davlatning byudjet siyosati quyidagilarga yo'naltirilgandir:

- byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytirish;
- davlat xarajatlari samaradorligi va optimalligini oshirish. Buning uchun byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini va manzilliligini oshirish maqsadida byudjetni rejalashtirish metodlarini takomillashtirish zarur;
- byudjetni ijro etishning g'aznachilik tizimini kiritish asosida davlat moliyasini boshqarishni va nazorat qilish samarali tizimini yaratish;
- iqtisodiyotdagitarkibiyo'zgarishlarxarajatlarniquyidagi yo'nalishlar bo'yicha kengaytirishni nazarda tutadi: qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish; sug'oriladigan dehqonchilik yerlarini suv bilan ta'minlash; fermer xo'jaliklarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish; bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish tashkiliy tuzilmasini joriy etish; qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning

mustaqilligini kengaytirish;

-□markazlashgan investitsiyalarga xarajatlarning ustuvor yo'nalishlari.

Ular quyidagi vazifalarni yechish uchun zarur kapital mablag'lar hajmini oshirishni nazarda tutadi:

-YaIMning barxaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini;

-bandlik muammosi va aholi daromadlarini oshirish muammosini;

-iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirishni; moliyaviy resurslarni ishga tushiriladigan ob'ektlarga yo'naltirishni; strategik ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni;

-□byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

III.3.10-jadval

Namangan viloyati maxalliy byudjeti xarajatlari tarkibi va tuzilishi

(2008-2010 yillar bajarilishi bo'yicha).

№	Harajatlar	2008yil		2009yil		2010yil	
		Miqdori ming so'm	Salmog'i%da	Miqdori ming so'm	Salmog'i %da	miqdori, ming.so'm	salmog'i, %da
1	Iqtisodiyot xarajatlari	9985611.0	2.9	14451171	3.1	20763440	3.4
2	Ijtimoiy-madaniy tadbirlari xarajatlari	236035395.0	67.7	324174667	69.7	441027199	73
3	Davlat boshqaruv xarajatlari	3590017.0	1	4316785	0.9	5709192	0.9
4	Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari	5443014.0	1.6	7498282	1.6	10345794	1.7
5	Kapital	28192192.	8.1	24129729	5.2	1982644	3.3

	qo'yilmalar va loyixalashtirish xarajatlari	0				5	
6	Turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar	58462666. 0	16.8	80022887	17.2	9594066 4	15.9
7	Boshqa sarf xarajatlar	7120093.0	0.5	9947884	2.3	1018724 4	.8
	Jami xarajatlar	34882898 8.0	100	464541405	100	6037999 78	100

Manba Namangan viloyati Moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tay'orlandi

Byudjet xarajatlarining tahlili quyidagilarni ko'rsatdi:

– byudjet xarajatlaridagi katta ulush ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy himoyalashga to'g'ri keladi va u o'sib borish tendentsiyasiga ega (2009 yilda – 67,7 %, 2010 yilda – 73 %). Bu O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish modeli – ijtimoiy yo'naltirilgan model ekanligi Bilan izohlanadi va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining chuqurlashib borayotgan sharoitda uning ta'sirini yumshatish va bartaraf etish maqsadida mamlakat hukumati byudjetning ijtimoiy sohaga va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan xarajatlarni oshiradi;

Jadvaldan kurinib turibdiki Namangan viloyati maxalliy byudjetidan 2008 yilda 348828988 ming sum mablag' sarflangan ularning taqsimotini jadvalda kurishimiz mumkin . unga kura iqtisodiyot uchun jami xarajatlarning 2.9 foizi sarflangan. Ijtimoiy madaniy tadbirlar uchun 67.7 foiz yani qilingan xarajatlarning orasida eng katta ulushga ega bo'lgan , chunki xozirgi kunda ijimoiy ximoya va ijtimoiy soxalarni qo'llab quvvatlash eng dolzarb vazifalardan biri bulib qolmoqda.

Kapital qo'yilmalar va loyixalashtirish uchun esa 28192192.0 ming sum sarflanib bu xarajatlarning 8.1 foizini tashkil etgan. Axolini turmush farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar esa jami xarajatlarning 16.8 foizini tashkil etmoqda. 2008, 2009 va 2010 yillarda qilingan xarajatlarning farqini jadvaldan bilib olish qiyin emas, yani xamma qilingan xarajatlar miqdoran ortgan , lekin ularning jami xarajatlardagi ulushlarida keskin uzgarishlar yuq. Masalan 2010 yilda iqtisodiyot uchun 20763440 ming so'm ajratilgan. U xarajatlarning 3.4 foizini tashkil etgan bu kursatkich avvalgi yillardagidan miqdoran va ulushi jixatidan xam ortiqdir yani 2008 yilda 2,9 foiz , 2009 yilda 3,1 foizga, 2010 yilda 3,4 foizni tashkil etgan. Ijtimoiy madaniy tadbirlar uchun qilinayotgan xarajtdlar xam yildan yilga ortib bormoqda 2008 yilda 236035395 min so'm , 2009 yilda 324174667 min so'm, 2010 yilda esa 441027199 ming so'mni tashkil etgan. Jadvaldan boshxaruv organlari xarajatlarini ortganligini ko'rishimiz mumkin , lekin xarajatlar tarkibidagi ulushi deyarli o'zgarmagan. Ya`ni 1%, 0.9%, 0.9% ni tashkil etmoqda.

Xulosa sifatida shuni ta kidlab o'tishimiz lozimki, xozirgi **“Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi”** sharoitida barcha mahalliy byudjetlarda bo'lgani Namangan viloyati mahalliy byudjetidan ham hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy xolatini yaxshilashga qilayotgan barcha turdagi harajatlarini takomillashtirish, ya`ni uning aniqliligiga, qilinayotgan harajatlar o'z joylariga yetib borishini nazorat qilish darkor. Chunki ushbu harajatlarni o'z-o'zidan qilinmaydi albatta, buning uchun moliyaviy manba zarurdir. Ijtimoiy sohaga oid xarajatlarning asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarga – ya`ni ma`rifat (2009 yil – 27,5%, 2010 yil – 33,8%), sog'liqni saqlash va sportga (2009 yilda – 10,3%, 2010 yilda – 12,9%) to'g'ri keladi;

-O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholini qo'llab quvvatlash aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlarning narxlari tafovutini byudjetdan qoplash yo'li bilan, shuningdek, oilalarga (bolali oilalarga ham) ijtimoiy nafaqalar to'lash orqali amalga oshiriladi. Tahlil etilayotgan davrda aholiga qiymatlar va narxlar orasidagi farqni byudjetdan qoplash qisxarib bordi,

lekin byudjet xarajatlarida oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar ulushi oshib bordi. Bunga asosiy sabab, aholini ijtimoiy himoyalash tizimida byudjet dotatsiyalaridan adresli moddiy himoyalashga oid ajratmalarga o'tilishidir. Bu chora-tadbirlar ijtimoiy adolat tamoyilini ta'minlab, aholining o'rtacha turmush darajasi o'sishiga olib keladi;

– byudjet xarajatlarida iqtisodiyotga va markazlashgan investitsiyalarga oid xarajatlar ulushi tahlil etilayotgan davrda pasaydi (2009 yilda – 24,3%, 2010 yilda – 17,5%), bu holat ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida muhim ijtimoiy dasturlari tatbik etilishining yakunlanishi bilan qisman izohlanadi; xarajatlarida boshqa xarajatlar katta ulushga ega, uning– byudjet tarkibiga: mudofaaga, tashqi iqtisodiy faoliyatga oid xarajatlar, eksportchilarga QQSni qoplash, statistik ishlarni amalga oshirish uchun davlat buyurtmasi, joriy davlat xarzini boshqarish va boshqalar kiradi. Tahlil etilayotgan davrda ushbu xarajatlarning ulushi pasayib bordi (2009 yilda – 25,5%, 2010 yilda – 19,6%).

III bob. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni yechimlari.

III.1. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishda xorij tajribasi.

Qozog'iston Respublikasida 1991 yil 17 dekabrda Qozog'iston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi yangi qonunni qabul qilinishi mamlakat byudjet tizimi islohotlarining asosi bo'ldi.

Mahalliy byudjetlarga quyidagi tushumlar yo'naltirilishi belgilandi:

- q> yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliqlarning 50 foizi;
- q> jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqlar;
- q> ijtimoiy to'lov;
- q> mol-mulk solig'i;
- q> yer solig'i;
- q> transport vositalariga solinadigan soliq.

Qozog'iston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni turli darajadagi byudjetlarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni tartibga solib, respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, tasdiqlash, ijro qilish, moliyaviy nazoratni amalga oshirish tartibini aniqlab berdi. Ushbu qonun bilan byudjet mablag'larining shakllanishi va xarajat qilinishi tamoyillariga o'zgartirishlar kiritildi.

Markaziy va mahalliy hokimiyat organlari funktsiyalari bo'lindi, respublika hamda mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan dasturlar tarkibi aniqlandi. Faqat ikki soliq-yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq va alkogol ichimliklariga aktsizlar mahalliy byudjetlarga 50 foiz me'yor bilan teng ulushlarda taqsimlanadigan bo'ldi.

AQShda Federal byudjetining daromadlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, Davlat hukumati uch bosqichdan iboratligi uchun soliqlarni uch darajaga bo'linishini jadvaldan ko'rish mumkin. Amerika soliq tizimining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda asosiy soliq turlari parallel ravishda qo'llaniladi. Xususan, aholi uchta jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig'ini (federal, shtat, mahalliy), uchta korporatsiya foydasidan solig'ni (federal, shtat, mahalliy), ikki turdagi mulkiy soliqni (shtat, mahalliy) to'laydi.

Federal byudjetning daromadlari deyarli to'laligicha soliq tushumlaridan tashkil topishini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin. Federal byudjet daromadlarining eng yirigi aholidan olinadigan daromad solig'i hisoblanadi. Bunday qoida bu turdagi soliq to'lovchilar soning doimiy o'sishi bilan ham xarakterlanadi. Aholi daromadidan olinadigan soliqning ob'ekti bo'lib, barcha manbalardan (ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan daromadlar, qimmatbaho qog'ozlardan daromad) olinadigan daromadlar hisoblanadi. Soliq solish sub'ekti ayrim olingan shaxs yoki oila bo'lishi mumkin. Germaniya Federativ Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarini asosini tashkil etuvchi soliqlar mamlakatning asosiy Qonuni-Konstitutsiyasida belgilab berilgan.

III.1.11-jadval.

AQSh da soliqlarning taqsimlanishi

	Federal soliqlar	Shtatlar soliqlari	Mahalliy soliqlar
.	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq	Jismoniy shaxslar daromadiga soliq
.	Korporatsiya foydasiga soliq	Korporatsiya foydasiga soliq	Korporatsiya foydasiga soliq
.	Ijtimoiy sug'urta solig'i	-	-
.	Aktsizlar	Aktsizlar	Aktsizlar
.	-	Savdo solig'i	Savdo solig'i
.	Bojxona to'lovlari	-	-
.	Meros va hadyadan soliqlar	Meros va hadyadan soliqlar	Meros va hadyadan soliqlar
.	-	Mulkiy soliqlar	Mulkiy soliqlar

.	-	Avtomashina egalaridan soliqlar	-
0.	-	-	Ekologiya solig'i

Manba. Nalogi i nalogovoe pravo. A.V.Br iganina i dr. M.: «Analitika-Press». 1998.str.222.

Federatsiyaning byudjeti asosan bojxona bojlari, aktsiz yig'implari, sug'urta yig'implari, kapital oborotidan soliqlar, federal soliqdan veksel yig'imi tashkil opadi. yer solig'iga asosan mulk solig'i, meros solig'i, avtotransport egalaridan olinadigan soliqlar, pivoga soliq kiradi.

Daromadlarning birgalikdagi manbalariga (Federatsiya va yerlar uchun) jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq, korporatsiyalardan olinadigan soliqlar, QQS kiradi. Bu soliqlardan birinchi ikkitasi Federatsiya va yerlar o'rtasida taqsimlanadi, bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining bir qismi obgtsinalarga beriladi. QQSning 56% i Federatsiya byudjetiga, qolgan 44% i yerlar byudjetiga tushadi. Obshinalarga jismoniy shaxslar daromadi solig'ining tarkibiga kiruvchi tadbirkorlik solig'i va ko'chmas mulkdan olinadigan soliqlar kiradi.

Germaniyada turli darajadagi ma'muriy tuzilmalar daromadlari taqsimotini tengligini ta'minlovchi vertikal mutanosiblik bilan birga, moliyaviy jihatdan baquvvat va kuchsiz yerlar o'rtasida daromadlarni taqsimlashning gorizantal mexanizmi ham mavjud.

Germaniya soliq tizimi uning byudjetini 60-80% ini tashkil etuvchi o'ttiz sakkizta soliqdan tashkil topgan. Daromadlarning 54% ini egri soliqlar (QQS va aktsizlar) va 46% ini to'g'ri soliqlar tashkil etadi. Yuqorida sanalgan soliqlarning ko'pchiligi sezilarsiz darajada bo'lganligi uchun printsiptial ahamiyatga ega emas.

Shundan kelib chiqib barcha soliqlarni uchta yirik guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga soliq tushumlarini 90% ini ta'minlovchi yirik soliq turlari (etti turdagi) kiradi. Ularga: ish haqidan soliq, QQS, tadbirkorlik faoliyati uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadidan soliqlar, korporatsiyadan soliqlar, benzinga soliq va tamakiga aktsiz. Ikkinchi guruhga solikli daromadlarning 10% ini ta'minlovchi yer solig'i, avtotransportlardan (jami o'n uchta) va boshka soliqlar kiradi. Uchinchi guruhga kiruvchi soliqlar (o'n sakkizta turdagi) soliq tushumlarining 0,4% ini tashkil etadi (qandga, tuzga, choyga, otchoparlardan, it egalaridan, totalizatorlardan olinadigan soliq va boshkalar).

Germaniyada yerlar solig'i tarkibiga mulk solig'i, meros solig'i, yer uchastkasi sotib olganligi uchun soliq, transport vositasi uchun soliq, pivo solig'i, lotoreya va poygalar solig'i, yong'in solig'i kiradi. Germaniyada yer solig'i to'g'risidagi Qonun 1974 yilda tasdiqlangan bo'lib, u ikkiga bo'lingan:

1-turi - qishloq va o'rmon xo'jaliklari korxonalarini uchun- 0,6%, 2-turi yer uchastkalari uchun- 0,35%, kompaniyalar qurish va jismoniy shaxslar uchun:

- qurilgan uylar uchun - 75000 markagacha -0.26%, undan oshgan qismidan - 0,35%, ikki oila yashaydigan uylar uchun - 0,31% miqdorida soliq to'lash tartibi joriy qilingan.

Er solig'i to'lashdan Germaniyada xuddi bizning mamlakatimizdagidek davlat muassasalari, cherkovlar, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, shifoxonalar, bolalar uylari hamda ilmiy maqsadlar uchun foydalaniladigan yerlar ozod etilgan. Uy-joy qurishni rag'batlantirish maqsadida uy qurgan oilalar 10 yil davomida yer solig'iga tortilmaydi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik va sanoat korxonalarini to'lagan yer solig'i summalari soliqqa tortiladigan foydadan chegirib tashlanadi. Germaniyada yer solig'i o'tgan yilgi to'lov miqdoridan kelib chiqqan holda kvartallarga bo'lingan holda undiriladi. To'lanishi kerak bo'lgan soliq summalari har 3 yilda bir marta tekshiruvdan o'tkaziladi, agar farq aniqlansa qayta hisob-kitob qilinadi.

«Italiya, Kanada, Frantsiya va Yaponiya davlatlarida O'zbekistondagidek yer, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun degan soliq turlari mavjud emas, balki bu resurslar uchun soliqlar sub`ektlarning daromad va mulk soliqlarining ichida qisman undiriladi»².

Rossiya Federatsiyasi sub`ektlarining byudjet daromadlari o'z daromadlari va tartibga solinuvchi solikli daromadlaridan iborat. Rossiya Federatsiyasi sub`ektlari byudjetining soliqsiz daromadlari Rossiya Federatsiyasida tashkil etilgan unitar korxonalarning barcha soliqlar va boshqa to'lovlarni to'laganidan keyin ular ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismi hisobiga shakllanadi. Rossiya Federatsiyasi sub`ektlari byudjetining solikli daromadlariga ko'yidagi daromad turlari kiradi:

- ◆ RF sub`ektlari byudjetining o'z solikli daromadlari;
 - ◆ RF sub`ektlari byudjetining tartibga soluvchi solikli daromadlari.
- Rossiya Federatsiyasi sub`ektlarining o'z byudjet daromadlari hamda Rossiya Federatsiyasi sub`ektlari ixtiyoriga birlashtirilgan federal soliqlar va yig'implarni Rossiya Federatsiyasi sub`ektlarining qonunchilik organlari tomonidan tasdiqlanadigan me`yorlar bo'yicha mahalliy byudjetlarga berilishi mumkin. Rossiya Federatsiyasi sub`ektlarining qonunchilik organlari hududiy soliqlar va yig'implarni joriy etadi, ular bo'yicha stavkalarni belgilaydi hamda soliq qonunchiligida belgilangan o'z huquqlari doirasida soliq imtiyozlarini taqdim etadi.

Mahalliy byudjetlarning solikli daromadlariga quyidagi daromad turlari kiradi:

- ◆ mahalliy byudjetining o'z solikli daromadlari;
- ◆ RF sub`ektlari va mahalliy byudjetlarga beriladigan tartibga soluvchi solikli daromadlari;
- ◆ davlat bojlari.

² О. Мегцерерякова Налоговые системы развитых стран. М. Правовая культура. 1995.

Mahalliy byudjetlarning soliqsiz daromadlari munitsipal unitar korxonalarning barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganlaridan so'ng ular ixtiyorida qoladigan foydaning bir qismi hisobiga shakllandi. Mahalliy byudjetlarga munitsipal mulkchilikda bo'lgan mulklarni boshqarishdan olinadigan daromadlar va mahalliy hokimiyat organlari hamda byudjet muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan pullik xizmatlardan keladigan daromadlar o'tkaziladi. Bundan tashqari, munitsipal mulkchilikdagi mol-mulklarni sotishdan olinadigan daromadlar ham mahalliy byudjetlarga o'tkaziladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari mahalliy hokimiyat organlari yuridik aktlariga muvofiq, belgilangan stavka va me'yorlarda boshqa mahalliy byudjetlardan berilishi mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etadi, stavkalari miqdorini belgilaydi hamda soliq qonunchiligi doirasida soliq imtiyozlarini taqdim etadi. RF sub'ektlari byudjetga subventsiiyalar va subsidiyalar hisob-kitobi va taqdim etish tartibi maxsus federal qonun bilan yoki keyingi moliya yili uchun federal byudjet to'g'risidagi federal qonun bilan aniqlab beriladi. RF sub'ektlari byudjetidan mahalliy byudjetlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi aniq tamoyillarga asoslanadi. Bunda davlat mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'z moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, davlat, munitsipal xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq moliyaviy xarajatlar me'yorlarini oshirish huquqiga ega.

Rossiya Federatsiyasi soliq tizimida soliqlar 3 qismga bo'lingan holda undiriladi. Federal soliqlar - Rossiya Federatsiyasining qonunchilik aktlari bilan o'rnatiladi va uning hamma hududlarida undiriladi. Tabiiy resurslarning alohida turlari va alohida mineral xom-ashyolarning aktsiz stavkalariga hamda bojxona bojlari stavkalariga Rossiya Federatsiyasi xukumati tomonidan o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Federatsiya sub'ektlaridan soliqlar - RF tarkibidagi barcha federal ahamiyatdagi respublikalar, o'lkalar va shaharlar qonunchilik aktlari bilan

«RFning asosiy soliq sistemasi» Qonuniga asosan o'rnatiladi. Mahalliy soliqlar - RF sub`ektlari va mahalliy hokimiyat organlari qonunchilik aktlari bilan «RFning asosiy soliq sistemasi» Qonuniga asosan o'rnatiladi.

Rossiya Federatsiyasining uch darajali soliq sistemasini quyidagicha ko'rinishda tasavvur qilish mumkin.

Federal soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, alohida tovarlar guruhlari va turlari uchun aksizlar, qimmatbaho qog'ozlar operatsiyalari uchun soliq, bojxona ta`rifi, mineral xom-ashyo bazasini qayta ishlaganligi uchun ajratma, tabiiy resurslardan foydalanganligi uchun to'lovlar, korxonalarning foydasiga soliq, jismoniy shaxslardan daromad solig'i, Davlat boji, meros yoki tuxfa sifatida o'tgan mol-mulkka soliq, «Rossiya» nomini ishlatganligi uchun yig'im, korxonalardan transport solig'i, banklar va ularning filiallarini ro'yxatdan o'tkazish yig'imi.

Federatsiya sub`ektlaridan soliq: korxonalarning mol-mulk solig'i, o'rmon daromadidan soliq, suv xo'jalik tizimidan sanoat korxonalari tomonidan olinadigan suv uchun to'lov, ta`lim muassasalari ehtiyojlari uchun yig'im, korxonalarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im.

Mahalliy soliqlar: jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i, yer solig'i, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi, kurort zonalarida ishlab chiqarish korxonalari qurganligi uchun soliq, kurort yig'imi, savdo huquqini beruvchi yig'im, reklama solig'i, boshqa ko'pgina soliq va to'lovlardan iborat. Rossiya Federatsiyasining barcha hududidan yer uchun to'lovlar undiriladi. Bundan maqsad - yerdan ratsional foydalanishni rag'batlantirish uni saqlash, unumdorligini oshirish hamda xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini tenglashtirishdir.

To'lov shakllari: yer solig'i, ijara to'lovi. yer egalari va yerdan foydalanuvchilar har yili yer solig'ini to'laydi, ijaraga berilgan yer uchun ijara haqi olinadi. yer munosabatlarini iqtisodiy tartibga solishni ta`minlash maqsadida yerlarni xususiylashtirib berishda, jamoa-paychilik asosida berishda,

merosga yer qoldirilganda, berilganda, bank kreditini olish uchun garovga qo'yilganda yerning normativ bahosi kiritiladi. Tashkilotlar, jumladan, xalqaro nodavlat chet el yuridik shaxslari bilan birgalikda, shu bilan birga yerlar xususiy qilib, egalik qilish uchun, ijaraga va ishlatish uchun RF hududidan yer berilgan RF fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yer solig'ini to'lovchilar bo'lib hisoblanadi. yer solig'i yer maydoniga va belgilangan stavkalarga asosan hisoblanadi. yerlar foydalanish maqsadlaridan qat'iy nazar soliq solish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

To'lovlar yerlarning qishloq xo'jalik maqsadida yoki boshqa maqsadlarida foydalanilishiga qarab turlicha stavkalarda soliqqa tortiladi. Qishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanilayotgan yerlar uchun yer solig'i stavkalari qo'llanishda uning sifati, maydoni, joylashgan o'rni, daromadlilik darajasi va boshqa faktorlar hisobga olinadi. Shaharlardagi yerlar uchun stavkalar belgilashda iqtisodiy tumanning o'rtacha stavkasidan kelib chiqqan holda, shaharning kategoriyasini, ijtimoiy-madaniy potentsiali darajasini va boshqa faktorlar hisobga olinadi. Agar belgilangan me'yordan ortiq yer uchastkalari bo'lsa, ular ortiq yer maydonlari uchun ikki barobar stavkada yer solig'i to'laydi. yer solig'i bir yilda ikki marta teng miqdorlarda: 15-sentyabrdan va 15-noyabrdan kechiktirmasdan to'lanadi, shuningdek, yer solig'idan qator yengilliklar berilgan.

Mahalliy hokimiyat organlari ma'lum bir guruh soliq to'lovchilarini soliqlardan o'z ixtiyorlarida qoladigan soliq summasi miqdorida yer solig'i to'lovidan qisman ozod qilishi yoki yengilliklar berishi mumkin. Ma'lum davrlarda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun ayrim soliq turlarining stavkalari kamaytiriladi. Har qanday daromaddan, masalan, aktsiyalar, uylar yer uchastkalaridan olinadigan sarmoya daromadlariga soliq solinadi. Uning stavkasi ishlab topilgan daromaddan (ish haqi, hunarmandlarning daromadlari) olinadigan soliqdan taxminan ikki barobar kamdir. Bu esa ijtimoiy jamg'arilishni rag'batlantiradi. Chunki sarmoyadan daromad olish huquqini beradigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish foydali bo'ladi.

Chet mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatadiki, shtatlar va mahalliy boshqaruv idoralari o'z xarajatlarini qoplash uchun chiqaradigan obligatsiyalardan kelgan daromadlarga soliq solinmaydi. Bu qimmatli qog'ozlarni keng miqyosda sotib olishni faollashtiradi. Chunki ulardan to'lanadigan foizlar boshqa qimmatli qog'ozlarning foizlariga nisbatan kam bo'lishiga qaramay yirik paketlar egalari daromadi soliqlar to'lashdan ozod bo'lish hisobiga oshadi. Narxi pasayib ketgan qimmatli qog'ozlarni saqlovchilarga ham soliq imtiyozlari beriladi. Ular ko'rgan zararlarini soliqqa tortiladigan daromaddan chegirib tashlash huquqiga ega. Yirik aktsiya paketlarining egalari uchun soxta sarmoyadan ko'rilgan zarar soliq to'lovlari kamayishi hisobiga daromadlarining real oshishiga aylanishi mumkin. Bunday yondashuv birjada kurslarning keskin o'zgarishini sug'urtalash yengillashtirish katta miqdorda solingan mablag'lar zarardan himoya qilinishini kafolatlash imkonini beradi.

AQShning soliq qonunlariga muvofiq, agar korporatsiya o'z faoliyatidan olgan mablag'larini dividendlar sifatida emas, balki investitsiyalarni kompaniya aktsiyalariga qaytarish tarzida taqsimlasa, bu mablag'larga soliq solinmaydi. Bu esa korxonaning rivojlantirish uchun foydani qayta investitsiyalashni rag'batlantiradi.

Bizning mamlakatimizda ham hududlarning iqtisodiyotini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlarga nisbatan, AQSh tajribasidan foydalangan holda, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadga soliqqa tortishda imtiyoz berish amaliyotini qo'llash mumkin. Buning natijasida: birinchidan, qimmatli qog'ozlarning tezroq sotilishi uchun zamin yaratilsa, ikkinchidan, sotilgan qimmatli qog'ozlardan kelgan daromadlar orqali ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi, uchinchidan, korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatining kengayishi iqtisodiyotning o'sishiga, qolaversa, maxalliy byudjet daromadlarining oshishiga yo'l ochadi.

III.2. Mahalliy byudjet mablag'laridan foydalanishdagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

Hududlarning byudjetdan amalga oshirayotgan xarajatlarning yetarli daromadlar bilan ta'minlanmaganligi, mahalliy byudjetlarning davlat tomonidan daromadlarni tartibga solishda birlamchi respublika byudjetdan yig'ilgan daromadlarning bir qismini qayta taqsimlashni talab qiladi. Shu maqsadda jahon amaliyotida dotatsiya va subventsiyalardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda dotatsiyadan mahalliy byudjetlarni daromadlarini tartibga solishda juda kam foydalaniladi. Amalda bunday vosita sifatida subventsiya siyosatidan foydalaniladi.

O'zbekistonda mahalliy soliqlarni joriy qilishdan maqsad birinchidan mavjud davlat soliqlari tomonidan soliqqa tortilmagan daromadlarni soliqqa tortish orqali soliq tizimining o'z vazifalarini bajarishdagi imkoniyatlarini kengaytirish bo'lsa, eng asosiysi mahalliy hokimiyat organlarini moliya-byudjet hududlarini kengaytirish va ularni mahalliy byudjetlarini daromadlarini mustahkamlashdan manfaatdorligini oshirishdir.

Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromadlari salmog'ini 50-60 foizga yetkazish masalasi muammolardan biri bo'lib turibdi. Bundan ko'rinib turibdiki, mahalliy soliqlarning, mahalliy byudjetlarning daromadlaridagi ulushi juda kichkinadir va bu borada qator moliyaviy tadbirlar ishlab chiqilishi kerak. Mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Hududlardagi mahalliy byudjet, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish bosqichida ya'ni islohotlarni chuqurlashtirish, davlatning boshqaruv funktsiyalarining joylardagi hokimliklarga va o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish davrida mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatkichlariga moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Ushbu mohiyatni hisobga olib mahalliy byudjetning mustahkamlanishi, asosida hudud byudjetining daromad bazasini mustahkamlashga qaratilishi kerak.

Mahalliy byudjet daromadlari asosan biriktirilgan daromadlardan har xil yig'imlardan va umumdavlat soliq ajratmalaridan tashkil topadi, yetmagan qismi Respublika byudjeti subventsiyasi tariqasida qoplanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiylashtirishning yanada chuqurlashib borishi va demokratik jarayonlarining rivojlanib borishi mahalliy byudjetlarning davlat byudjeti salmog'i oshib borishga olib kelmoqda. Shu sababli umumdavlat soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishini takomillashtirish, bunda umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning roli faqat mahalliy byudjetlarni daromadlar bilan ta'minlash emas, balki mahalliy hokimiyat organlarining yuqori byudjetlarda mablag'lar yig'ilishidagi manfaatdorligini, hududlarda ishtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liqligiga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mahalliy byudjetlarning asosiy qismini soliklardan tushadigan daromadlar tashkil qilayotgan hozirgi kunda soliq tizimining fiskal funtsiyasining kuchayishi korxonalarni moliyaviy ahvolini og'irlashishiga olib kelmoqda. Korxonalardan olinadigan soliq yukini kamaytirish soliqni rag'batlantiruvchi vazifasini namoyon qiladi va ishlab chiqarishni qo'shimcha rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yana mavjud imkoniyatlaridan biri u joylarda aholining iqtisodiy aktivligini oshirishga imkoniyatlar yaratish jismoniy shaxslarni tadbirkorlik faoliyatidan olayotgan daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirib borish bilan bog'liqdir.

Mahalliy byudjet daromadlarini rejalashtirishda, byudjet yili uchun oldingi yil ko'rsatkichlari asos qilib olinadi. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlarning sharoitiga moslashishi ma'lum bir vaqtni talab qiladi. Bozor mexanizmiga moslashish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning natijasida korxona va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarda ma'lum uzilishlar mavjud bo'ladi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish tsiklini to'liq amalga oshirishga xalaqit beradi. Natijada ko'zda tutilgan reja bajarilmay qoladi.

Bu o'z navbatida byudjetga rejalashtirilgan soliq tushumlari miqdorining byudjetga tushmay qolish xavfini tug'diradi. Ba'zi kichik korxonalar va tashkilotlarni yagona soliqqa o'z xohishlari bilan o'tishlari, hozirgi kunda byudjetga tushib kelayotgan tushumlarning barqarorligini ancha kamaytirmoqda.

Mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirishda, yakka tartibdagi tadbirkorlarni daromadidan tushadigan tushumni rejalashtirishda ma'lum qiyinchiliklar mavjuddir, bular asosan tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan fuqarolarning daromadlarini to'liq aniqlashning imkoni yo'qligidan kelib chiqadi, chunki jismoniy shaxslar sotib oladigan tovarlarni naqd pulga sotib oladi va naqd pulga sotadi. Jismoniy shaxslar daromadi patent bo'yicha soliqqa tortiladi. Patent summasi eng kam ish haqi miqdorida hisoblanadi. Unda katta miqdorda aylantirgan tovarni yoki xizmat ko'rsatgan tadbirkor bilan kichik miqdorda faoliyat ko'rsatgan tadbirkor daromadiga bir xil soliq undiriladi.

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlar balansini mustahkamlash yo'llarini aytib o'tish mumkin.

q> mahalliy byudjetlar uchun subventsiyalar faqat ustivor yo'nalishlarga qaratilishi lozim va ushbu mablag'larni maqsadli sarflashni nazoratga olish;

q> mahalliy byudjet daromadlarini oshirishda korxona va tashkilotlarning soliq yukini kamaytirish bilan ularning ishlab chiqarish faoliyatini tiklash va moliyaviy faoliyatini mustahkamlash;

q> mahalliy organlar tomonidan mahalliy soliqlarni joriy etishdagi huquqlaridan to'liq foydalanish;

q> daromad rejalarining bajarilishiga qarab rejadan ortiq olingan daromadlardan mahalliy byudjet qismiga hisoblanadigan foiz stavkalari normativlarini ko'paytirish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish mahalliy organlarning daromad rejalarini ortig'i bilan bajarilishiga bog'liq bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Daromadlarni tushirishda moliya organlarining javobgarligini oshirish kerak. Iqtisodiyotning ustivor yo'nalishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning boqimanda qarzlarini soliq krediti sifatida qayta rasmiylashtirish mumkin. Bu ishlab chiqarishni rivojlantiradi, korxonaning daromadi va rentabillik darajasini oshiradi.

Mahalliy byudjetlarni xarajatlari tarkibi bevosita mahalliy hokimiyat organlarining hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi vazifalari hamda

davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini amalga oshirish bilan belgilanadi. Mahalliy byudjetlar hududlarda ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishda, milliy daromadni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasida taqsimlanishda hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlangan hamda moliyaviy barkarorlikka erishishga yo'naltirilgan islohatlarni hozirgi davrida davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi»³. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar iqtisodiy nazariya, byudjet jarayoni va byudjetning xuquq va majburiyatlarini bajarilishini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Davlat byudjetidan faqat aholini ijtimoiy himoyasini amalga oshirishning moliyaviy manbai emas, balki mahalliy xokimiyatlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarini amalga oshirishda byudjetdan asosiy moliyaviy resurslar manbai sifatida foydalanish o'tish davridagi davlatning bosh islohotchilik rolini o'ynashida muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga egadir.

Ayni vaqtda. mahalliy o'z-o'zini boshkarish organlari vakolatlarini kengayishi asosida ularning moliyaviy bazasi hisoblanuvchi maxalliy byudjetlar orqali ijtimoiy soxa xarajatlarining asosiy qismi moliyalashtirilib borilmoqdaki, hozirgi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat va mahalliy byudjetlarning xarajatlari samarasini yanada oshirish va uni mustahkamlash umumiy davlat daromadlaridan samarali foydalanishning muhim omili hisoblanadi.

Respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan xarajatlar iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yo'nalishida davlat ahamiyatidagi yirik va strategik loyihalarga markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish,

³ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.: Ўзбекистон, 1998 йил.153

mamlakatning mudofaa tizimini moliyaviy qo'llab-kuvvatlash va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda byudjet tizimi rolining o'sishi bilan va bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida moliya-davlat mexanizmining faollashuvi, davlatning moliya-byudjet va soliq siyosati, byudjet orqali tartibga solish, moliyaviy mustaqillik va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari byudjetlarining daromad bazasining mustahkamlanishi kabi muammolarga duch kelinmoqda. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida byudjet ko'rilishi, byudjet jarayoni, byudjetning xuquq va majburiyatlarini bajarilishining hozirgi zamon muammolarini tadqiq etuvchi nazariy ishlanmalar va amaliy asoslarning sezilarli darajada zamon talabidan ortda qolayotganligi ushbu muammolar bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishning zarur qilib qo'ymoqda.

Hududlardagi mahalliy byudjet hozirgi bozor munosabatlariga o'tish bosqichida islohotlarni chuqurlashtirish, davlatning boshqaruv funktsiyalarining joylardagi hokimliklarga va o'zini-o'zi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish davrida mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatkichlariga moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiylashtirishning yanada chuqurlashib borishi va demokratik jarayonlarining rivojlanib borishi mahalliy byudjetlarning davlat byudjeti salmog'i oshib borishga olib kelmoqda. Shu sababli umumdavlat soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishini takomillashtirish, bunda umumdavlat soliqlaridan ajratmalarning roli faqat mahalliy byudjetlarni daromadlar bilan ta'minlash emas, balki mahalliy hokimiyat organlarining yuqori byudjetlarda mablag'lar yig'ilishidagi manfaatdorligini, hududlarda ishtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liqligiga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hamda tabiiy-jug'rofiy joylashuvdagi xususiyatlardan kelib chiquvchi tafovutlar davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadiki, buning natijasida mahalliy byudjet bo'g'inlari o'rtasida byudjet majburiyatlarining taqsimoti mezonlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Mazkur tafovutlar turli hududlar byudjet majburiyatlarining bir muncha yuqori va ayrimlarida esa, hatto, moliyaviy imkoniyatlarning taqsimotidagi keskin yetishmovchilikni keltirib chiqaradiki, ushbu holatlar davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'rni va ahamiyati amaldagi byudjet qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunida ushbu asoslar timsolida mahalliy byudjetlar imkoniyatlari shakllanishi va ularni samarali boshqarish yo'nalishlari uchun zamin yaratilgan. Biroq, mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitidagi hamda byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirlari va ularning real ijrosi xali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda.

Mahalliy byudjetlar imkoniyatlari tushunchasining mohiyati nafaqat ularning byudjet loyihasida ko'zda tutilgan daromad qismining hajmi bilan yoki nafaqat mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi bilan va hatto hududlar soliq-moliyaviy qudrati miqdori bilan to'liq yoritib berila oladi, balki mazkur tushunchaning moliyaviy-iqtisodiy tabiati va sifat tavsifi, avvalo, ular zimmasidagi majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida ijro etilishini hamda xarajat vakolatlari taqsimotiga ko'ra ijro etilgan byudjet majburiyatining moliyaviy ta'minoti orqali aniq ifoda etiladi.

Tartibga soluvchi daromadlar yuzasidan ularning barqaror me'yorlarini kamida 5 yil muddatga doimiy tarzda belgilash maqsadga muvofiqdir. Buning

natijasida mahalliy byudjetlar daromad bazasining asosi bo'lmish ushbu ikki manbaning yaqin istiqboldagi barqarorligini ta'minlashning iqtisodiy asoslari va huquqiy zaminlari kafolatlanadi.

Bizning fikrimizcha, yagona yondoshuv barcha hududlar uchun ajratmalarning yagona me'yorini o'rnatishda emas, balki me'yorlarni hisoblashning umumiy tamoyillari va uslubiyoti amal qilishini ta'minlashdadirki, bu holat mahalliy byudjetlar (hududlar) moliyaviy resurs potentsialini hisoblashda ularning barcha xususiyatlarini e'tiborga olishni zarur qilib qo'yadi. Alohida viloyatlarga soliq yengilliklarini berish moliya-byudjet tizimining yagonaligini ta'minlashga yordam bermaydi. Bu kabi imtiyozlar respublika byudjetidan berilayotgan yashirincha dotatsiyalarning manbaidir.

Shuning uchun, bizning fikrimizcha, barcha viloyatlar uchun umumiy bo'lgan mezonni ishlab chiqish zarurki, unga ko'ra tabaqalashgan me'yorlarning yagona uslubiyoti asosida byudjet tizimi ichida byudjet mablag'larini qayta taqsimlash jarayoni amalga oshiriladi.

Bunday mezon sifatida hududda shakllantirilgan qo'shimcha qiymat summasini yoki hudud yalpi ichki mahsuloti summasini mazkur hududda yashovchi aholi soniga taqsimlash orqali aniqlanadigan ko'rsatkichdan foydalanish va uni respublika bo'yicha o'rtacha daraja bilan taqqoslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bunday qayta taqsimlash jarayoni ko'rsatkichi yuqori bo'lgan hududlarni kamsitmasligi va ularda boshqalarga nisbatan ma'lum rag'batlar tizimi bo'lishini kafolatlashi lozim.

Mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash uchun soliq tizimidagi va soliq amaliyoti uchun xos bo'lgan qator ziddiyatlarning, jumladan, mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimini boshqarishdagi mahalliy byudjetlar huquqlari va soliq idoralari vakolatlari o'rtasidagi, solikli tushumlar bo'yicha byudjetga boqimandalar sezilarli miqdori va rejaning ortiqcha bajarilishidan manfaatdorlikning pastligi qrtasidagi, soliq tqllovchilar va soliq idoralari tomonidan amal qilayotgan jarima va ustama to'lovlar tizimidan turlicha tarzda foydalanish oqibatida kelib chiquvchi,

solliqlarning byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimoti mexanizmidagi nomutanosibliklarning saqlanib qolishi mahalliy byudjetlar imkoniyatlariga salbiy ta'sir etmoqda.

Amaliyotda umumdavlat ahamiyatidagi soliqlar bo'yicha byudjetda ko'zda tutilgan rejalarni ortig'i bilan bajargan hududlarga ushbu soliq rejalarni ortiq qilib belgilash orqali ushbu soliqlardan ortiqcha tushgan qismi Respublika byudjetiga olinib, tartibga soluvchi soliqlardan belgilangan rejalarni bajarmagan hududlarga, shu daromadlar va xarajatlarni moslashtirish maqsadida beriladi. Byudjet ijrosi davomida ko'plab o'zgartirishlarning kiritilishi, imkoniyati keng hududlardan rejadani ko'proq tushgan mablag'larni yig'ib olib, ularni boshqa hududlarga berilishi, albatta, hududlarning byudjet daromadlarini bajarishdagi manfaatdorligini cheklab qo'yadi, shuningdek boqimandalik kayfiyatini ham keltirib chiqaradi. Shu sababli mahalliy byudjetlarni shakllantirishda, ularni daromadlarini bajarishdagi barcha imkoniyatlarni, xarajatlarini rejalashtirishda inflyatsiya darajasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Respublika miqyosida mahalliy byudjetlar daromadlarida tartibga solinadigan daromadlarning salmog'i juda katta bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichida va uning chuqurlashuvida mahalliy hokimiyat organlarining davlat boshqaruvidagi, mahalliy byudjetlarning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi rolini oshirish, mahalliy byudjetlarni o'z daromad bazalarini yanada mustahkamlab borishini talab qiladi.

Yuqorida olib borilgan tahlillarga asoslanib shuni qayd qilish mumkinki, iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega bo'lgan respublika viloyatlarining byudjetdagi ortiqcha mablag'larini 10:90 nisbatda taqsimlash quyidagilarga yo'naltirilgan:

- daromadlari xarajatlaridan ortiq bo'lgan viloyatlar hududida soliq solinadigan bazani kengaytirish va ko'paytirishga, soliqlarni yig'ishga bo'lgan manfaatdorlikni saqlab qolishga;

- balanslashtirilgan byudjetga yoki soliq yig'imlarini oshirishda unchalik katta bo'lmagan taqchilikka ega bo'lgan viloyatlarda rag'batlantiruvchi sharoitlarni tashkil qilishga.

Ma'lum bir davrda barqaror bo'lgan tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning yagona me'yorlari, moliyaviy yordamni taqsimlashda, vertikal va gorizontal disbalansni tenglashtirish hisobga olingan holda moliyaviy yordamning eng qulay shakllarini tanlash va asoslashga yondoshishlarni isloh qilish nu'o'tai nazaridan muhimdir.

Mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini oshirish maqsadida soliq tizimini isloh qilish yuzasidan takliflar soliqlarning ikki guruhini farqlash lozimligiga asoslanadi:

- tegishli byudjet bo'g'iniga biriktirilgan soliqlar yoki barcha boshqarish organlari moliyaviy mustaqilligini jumladan, mahalliy o'z-o'zini boshqarish tizimini ta'minlovchi byudjet kvotalari;

- byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish maqsadlarida qayta taqsimlash uchun foydalaniladigan soliqlar.

Mahalliy byudjetlar imkoniyatini mustahkamlash maqsadida qonuniy tarzda faqat mahalliy soliq va to'lovlarning tarkibini aniq belgilab qo'yish, balki respublika ahamiyatidagi umumdavlat soliqlarining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushlari dinamikasini tahlil qilish va yanada takomillashtirish ham zarurdir. Ushbu strategik maqsadga erishish yuzasidan soliq tizimini takomillashtirish quyidagi ikki muhim vazifaning bajarilishiga erishish kerak:

1) Soliq tizimi joylarda mahalliy byudjetlarning o'z soliq bazalari takomillashuvini va mustahkamlanishini rag'batlantirishi lozim;

2) Mahalliy byudjetlar daromadlari umumiy hajmida tartibga soluvchi soliqlardan tushumlarni ham qo'shganda o'z daromadlari bilan ta'minlanishi darajasi 70 % dan kam bo'lmasligi lozim.

1. Byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitida mahalliy byudjetlarni moliyaviy tenglashtirish siyosatining qqlanilishi tartibi va uning

mezonlarining aniq ishlab chiqilmaganligi davlatning barqaror tadbirlari tizimi orqali mahalliy byudjetlar balansli faoliyatini kafolatlash imkonining yqqiligi oqibatida ularga «respublika byudjetidan berilishi lozim bo'lgan yalpi moliyaviy yordam»ning iqtisodiy asoslangan me'yorlarini aniqlash uslubiyotiga zaruriyat sezilmoqda.

Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan jahon amaliyoti tasdiqlashicha, mahalliy byudjet bo'g'inlari va davlatning markaziy byudjeti o'rtasida yuqori byudjetdan quyi byudjet bo'g'inlariga turli ajratmalar qilishga xizmat qiluvchi va mas'ul davlat bo'g'inining (fondining) amal qilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqsaddagi maxsus fondlarga, jumladan, Rossiya Federatsiyasida 1996 yildan faoliyat ko'rsatuvchi Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash Federal fondini, 1996 yildan Qozog'iston Respublikasida amal qilayotgan "Hududlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash Fondini" misol qilish mumkin. Albatta, "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida bu kabi maxsus fondni tashkil etish ko'zda tutilmagan bo'lsada, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga transfert to'lovlari tizimini mahalliy byudjetlar imkoniyatini mustahkamlash maqsadida takomillashtirish yangi byudjet qonunchiligida bu kabi tuzilmaga zaruriyat mavjudligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan respublika byudjetidan ajratiladigan transfertlar (moliyaviy yordamlar) miqdorini aniqlash uslubiyotini ko'rib chiqish zaruriyati tug'iladi. Bu masalada shunday xulosa qilish mumkinki, Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot ommalashtirilmog'i lozim. Bina shu narsa xususiyatliki, byudjet tizimini tartibga solish maqsadida jon boshiga nisbatan daromad va xarajatlarni taqsimlashga asoslangan holdagi moliyaviy yordamni aniqlash uslubiyoti barcha talablarga to'liq javob bermaydi va hududlar mahalliy byudjetlarining o'z-o'zini ta'minlash va byudjetlarni tenglashtirishni rag'batlantirish vositasi bo'la olmaydi hamda ayrim hollarda mavjud notekis taraqqiyotga g'ov bo'la olmaydi.

Mahalliy byudjetlar imkoniyati ular zimmasidagi majburiyatlar ijrosi bilan bog'liqligi tufayli joriy moliya yili davomida xarajat vakolatlarining taqsimlanishi tizimidagi o'zgarishlarning kiritilishi mahalliy byudjetlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir etib, ular imkoniyatlari yaxshilanishiga g'ov bo'lmoqda. Umumdavlat dasturidagi tadbirlarni moliyalashtirishning mahalliy byudjetlar zimmasiga yuklash va shu bilan birga ular moliyaviy ta'minotida mahalliy byudjetlar ishtirokini talab etish hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etishi muqarrardir. Shu boisdan, bizning fikrimizcha, mahalliy byudjetlar xarajatlariga qattiq byudjet cheklovlarini qo'llash bir vao'tning o'zida, soliq tushumlarining o'sishini ham hisobga olishi va yetarlicha byudjet mustahkamligi hamda sharoitga moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston", 2004 y. 36 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. Halq so'zi gazetasi, 2005 yil 24-aprel, 2-6 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. Halq so'zi gazetasi, 2005 yil 14 dekabr, 2-3 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2005 yildagi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi 490-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2004 yildagi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi 504-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2005 yildagi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida"gi 554-sonli qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrda 1436-sonli Farmoni «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori halqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari.»
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil yakunlari va 2011 yilning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma`ruzasi. I.A.Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada rivojlantirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi. Halq o'rodasi 2011 yil.
9. I.A.Karimov. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Halq so'zi 2011-yil 22-yanvar

10. I.A. Karimov “2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida”gi ma‘ruzasi Halq so‘zi gazetasi №21 2010 yil
11. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. “O‘zbekiston”, 2003.-628 b.
12. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot—pirovard maqsadimiz. T.: “O‘zbekiston”, 2005.-528 b.
13. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 2004.-410 b.
14. Karimov I.A. Xavfsizlikka tahdid va barqaror tarafo‘iyot yo‘lida. T.: “O‘zbekiston”, 2004.-429 b.
15. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: “O‘zbekiston”, 2004.-380 b.
16. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istio‘lol, iqtisod, siyosat, mafko‘ra. T.: “O‘zbekiston”, 2004.-366 b.
17. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lida. T.: “O‘zbekiston”, 2004.-384 b.
18. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O‘zbekiston”, 2005.-350 b.
19. Abdullaev Yo.A., Yahyoev o‘.A. Soliq:100 savol va javob. T.: “Mehnat”, 2005.-125 b.
20. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. T.: “Moliya”, 2005.-311 b.
21. Gataulin Sh.K. Nalogi i nalogooblojenie. Uchebnoe posobie. T.: «Gosudarstvenno‘y nalogovo‘y komitet», 2004.-241 s.
22. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya.-2 izd. M.: Delo LTD, 2004.-264s.
23. Zaripova I.R., Xafizova V.R. Istoriya razvitiya i sovremennoe sostoyanie mejbyudjetno‘x otnosheniy v Rossii. – 2-izd. Ufa,: GP”Print”, 2004.-181s.

24. Iqtisodiy rivojlanish yo'nalishlari. Choraklik nashr.O'zbekiston. TASHI. Iyul -sentyabr 2005.-85b.
25. Yo'ldoshev M. Tursunov. Moliya huquqi. T.:“Mehnat”, 2004.-219 b.
26. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. T.: “Akademiya”, 2005.-202 b.
27. Malikov T.S. Soliq va imtiyoz dialektikasi. (1,2 –maqola). “Iqtisod va hisobot”, №7-№12, 2005.,13-25b.
28. Malikov T.S. Moliyaviy menejment. T.: “Akademiya”, 2005.-160 b.
29. Namozov R. Xazinachilik tizimi roli to'g'risida. “Bozor, pul va kredit” jurnali №3-4 2004 y, 64-b.
30. Olimjonov O.O. , Malikov T.S., Koraliev T.M. Zamonaviy moliya-bank atamalari va iboralarining inglizcha-ruscha-O'zbekcha ekvivalent luYoati.T.:”Akademiya”, 2003.-300 b.
31. Oryoshin V.P. Gosudarstvennoe regulirovanie natsional noy ekonomiki. M.:Infra –M, 2005.-86s.
32. Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy mo'sli i politiki nalogov. M.: Infra-M, 2004.-261 s.
33. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. T.:”Mehnat”, 2000.-456 b.
34. O'lmasov A.O'. Iqtisodiyot asoslari. T.:”Mehnat”, 2005.-225 b.
35. Haydarov N. Moliya. T.: Akademiya. 2004 y.-86b.
36. O'odirov A., Tursunov A. Iqtisodiyot nazariyasi. T.:”Mehnat” 2005.-305 b.
37. [http G'G' www. Uzce. Com.](http://www.uzce.com) – O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi – internet sayti.
38. [http G'G' www. Atm. Uz-](http://www.atm.uz) Fond birjasi axborot tahlili – internet sayti.

Namangan viloyat mahalliy byudjeti xarajatlaring 2008-2009 yillarda Tasdiqlangan REJASI




Diagramma muallif tomonidan Namangan viloyat Moliya boshqarmasi statistik ma'lumotlari asosida tuzildi.





Diagramma muallif tomonidan Namangan viloyat Moliya boshqarmasi statistik
ma'lumotlari asosida tuzildi.



Namangan viloyati ta'lim muassalarining tarmoq va shtat ko'rsatkichlari bajarilishi to'g'risida ma'lumot
-jadval

	Muas sasa	2009 yil			Muas sasa	2010 yil		
Internat	1	08	218937	123635	1	08	226627	132955
Maktabgacha yoshdagi bolalar muassasa	5	179	313274	147008	5	179	411205	240580
Bolalar bilan ishlovchi maktab dan tashqari muassasa	17	460. 5	554048	375424	17	468	822789	635954
Maktablar	606	144 93	203885 51	9674080	597	1459 1	2528786 2	15668993
	14	717	102221 6	581371	14	708	1125911	891941
	646	454 74	666311 20	4491121 8	646	4421 4	9517698 6	69059714
	27	269 9	482364 4	2296541	28	2734	6008809	3412990
	6	873	189739 5	1136401	6	883	2754803	1851824
	96	264 5	265524 9	1891501	96	2737	4391040	3178114
	1	69	134097	58371	1	68	159587	81883
	1	23	43123	35334				
	16	373.	455954	285684	16	385.5	683577	459435

		5						
		268	411749	268000				
		110	97195	72463				
	1	14	51117	40237		27.5	79949	64900
	1437	685 06	996976 69	6189726 8	1428	6710 3	1371291 45	95679283
Kollejlar	2	90.5	78052	49301	4	197	521655	359988
	83	121 61	157347 57	1048328 3	90	1429 8	2739994 9	19137324
	1	15	14295	11532	1	15	26170	19093
	6	128 6.5	185985 2	1256724	6	1486	3294946	2270692
	2	539	948314	669070	2	570	1400285	1024603
	4	187. 5	291336	129574	4	186.5	404850	204055
	1	143	207866	134636	1	136	341459	231666
	99	144 22.5	191344 72	1273412 0	108	1688 8.5	3338931 4	23247421

Manba muallif tomonidan Namangan viloyat Moliya boshqarmasi statistik ma'lumotlari asosida tuzildi.

Daromadlar	2009 yil		2009 yil		Farq(Q;-)	
	Mln.so'm	% da	Mln so'm	% da	Mln.so'm	% da
1. To'g'ri (bevosita) soliqlar	2769172,4	26,57	3420602	25,0	651429,6	-1,57
1.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	542342,9	5,20	645476,1	4,9	103133,2	-0,3
1.2. Savdo va umumiy ovqatlanshi korxonlari uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajtarmalar	222415,1	2,13	297034,7	2,3	74619,6	0,17
1.3. Yagona soliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) Davlat byudjetiga ajratmalar	256002,2	2,46	346321,2	2,6	90319	0,14
1.4. Jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq	1281600,0	12,30	1526033,1	10,6	244433,1	-1,7
1.5. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliq	108600,0	1,04	139145,7	1,1	30545,7	0,06
1.6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	358212,2	3,44	457591,7	3,5	99379,5	0,06
2. Egri (bilvosita) soliqlar	5162093,6	49,53	6973809	52,0	1811715,4	2,47
2.1. Qo'shilgan qiymat solig'i	3093980,9	29,69	3987982,3	30,0	894001,4	0,31
2.2. Aktsizlar	1503287,0	14,43	2191092	16,5	687805	2,07
2.3. Bojxona bojlari	361100,0	3,46	479267,2	3,5	118167,2	0,04
2.4. Transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliq	203185,7	1,95	315467,9	2,0	112282,2	0,05
3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	1662498,0	15,95	1974143,8	15,0	311645,8	0,05
3.1. Mol-mulk solig'i	275098,8	2,64	354128,5	2,7	79029,7	0,06
3.2. yer solig'i	1024844,0	9,83	303850,1	2,3	-720993,9	-7,53

3.3.Er osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq	43509,5	0,42	1265000	9,6	1221490,5	9,18
3.4.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	--	-	51165,2	0,4	-	-
4. Ustama foydadan olinadigan soliq	238498,2	2,29	25695,7	3,0	-212802,5	0,01
5. Boshqa daromadlar	518120,3	4,97	722145,1	5,0	204024,8	0,03
Davlat byudjetining jami daromadlari	10421382,5	100,0	13116396,9	100	2695014,4	14,7

Halq ta'limi muassasalari rahbar hodimlari mehnatiga
haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavklari
MIQDORLARI

Lavozimlar nomi	Tarif stavkalari			
	I guruh	II guruh	II guruh	V guruh
1. Rahbar hodimlar :				
1.1. Umumta'lim maktab direktorii	90387	85446	80580	75467
1.2. Metodik kabinet mudiri va monitoring bo'limi (sektori) boshlig'i, kasbga yo'naltirish va o'quvchilarning psixologik- pedagogik tashxisi markazi rahbari	44396	X	X	X
1.3. «Mehribonlik» uyi, musiqa maktabi va san'at maktabi direktori	46208	43246	X	X
1.4. Maktabdan tashqari muassasa direktori	40303	37463	34736	X
1.5. Maktabgacha bolalar muassasasi mudiri	3246	4030	X	X
1.6. Oliy sport mahorati maktabi, olimpiya zahirolari ihtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar maktabi direktori	52810	X	X	X

1.7. Bolalar va o'smirlar sport maktabi direktori	49465	46208	43246	X
2. Rahbarlarning o'rinbosarlari				
2.1. Maktab direktoriining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari, maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari	85446	80580	75467	70483
2.2. Umumta'lim maktabidagi o'quvchilarni chaqiriqqa tayyorlash rahbari	57557	53905	50345	47087
2.3. Metodik kabinet mudirining va monitoring bo'limi (sektori) boshlig'ining o'rinbosari	43437	X	X	X
2.4. «Mehribonlik» uyi direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha, musiqa maktabi, san'at maktabi direktorining o'quv-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari	37463	34736	32119	X
2.5. Maktabdan tashqari muassasa direktorining o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	37463	34736	32119	X
2.6. Oliy sport mahorati maktabi, bolalar va o'smirlar Olimpiya zahiralarini ixtisoslashtirilgan maktabi direktori o'rinbosari	49465	X	X	X
2.7. Bolalar va o'smirlar sport maktabi direktorinig o'rinbosari	46208	43246	40303	X